

G. NIYOZOV, Q. AHMEDOV,
Q. TOJIBOYEV

SHARQ ALLOMALARI
VA MA'RIFATPARVAR
ADIBLARINING BARKAMOL
AVLOD TARBIYASIGA OID
MA'NAVY-AXLOQIY
QARASHLARI



TOSHKENT — «O'ZBEKISTON» — 2010

ББК 87.00 717
N-55

Taqrizchilar:


Pedagogika fanlari doktori, professor *S. Matjon*,
pedagogika fanlari doktori *F. Yuzlikayev*

To'plamda Sharq mutafakkirlari, olim va donishmandlarining hayoti va ijodi, ularni mashhur qilgan asari yoki faoliyatidagi o'ziga xos holatlar hamda har bir allomaning odob-axloq, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlariga oid tushunchalar qisqacha bayon etilgan. Shuningdek, yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda mutafakkir va donishmandlar ma'naviy merosining o'rni masalasiga e'tibor berilgan.

Risola talabalar, maktab o'qituvchilari va o'quvchilari hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

L 87. 717
N-55

W-37599
388



© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2010.

Ko'makchi fond

ALLOMALAR — TARIXIMIZ, MA'NAVIY MEROSIMIZ

Ilm-u fan, ma'rifat-u madaniyat asrlar davomida insoniyat olamining so'nmas mash'ali bo'lib kelgan. Bu mash'alning yanada yorqinroq va yorug'roq shu'la sochishini ta'minlash uchun tarix zarvaraqalaridagi durdona fikrlari va ma'rifiy-ma'naviy g'oyalari bilan tarbiyashunoslik faniga katta hissa qo'shgan alloma va mutafakkirlarimizning pedagogik qarashlarini chuqurroq o'rganish, tadqiq qilish va yoshlarimiz e'tiboriga havola etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganlaridek: «O'sib kelayotgan yosh avlod har tomonlama mukammal irodali, sof vijdon bilan kamolga yetishi uchun, eng avval, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyos ulug'dir»¹. Tabiiyki, bu talabni amalga oshirishda yosh avlod ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning zaminini bilishi kerak, albatta. Bu zamin esa milliy qadriyatlarimiz, o'tmishi boy va rang-barang merosimizdir.

Bizga ma'lumki, 2010-yil «Barkamol avlod yili», deb e'lon qilindi. Bunda ham har bir tarbiyachi-pedagogning yoshlarni barkamollik sari yetaklashi ko'zda tutiladi.

Jamiyatimizda ma'naviy, axloqiy muhit sog'lomlashayotgan, milliy qadriyatlar, inson huquqlari va erki tiklanayotgan, ijodiy kuch-qudrati namoyon bo'layotgan sharoitda barkamol shaxs — bu o'zida ma'naviy-axloqiy xislatlar majmuyini mujassamlashtirgan, jamiyatda o'zligini va o'z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma'rifatli, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan yetuk, yuksak iste'dod va salohiyatga ega bo'lgan ijodkor yoshlarni tarbiyalashni amalga oshirish davrimizning ustuvor masalalaridan hisoblanadi. Bilamizki, xalqimizning barcha ezgu niyatlari markazida farzandlar kamoli — ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, baxt-saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi. Bu orzuni amalga

¹ Karimov I.A. O'zbekistonning o'z taraqqiyot yo'li. — T.: «O'zbekiston», 1992. 17-bet.

oshirish omillaridan biri yoshlarimizga o'z Vatani tarixini bilishi, donishmand xalqimizning ko'p asrlik tajribalarini va jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti bilan bog'liq an'analarini ifodalab kelgan pedagogika tarixining o'tmishi va allomalarimizning ma'naviy-axloqiy g'oyalari hamda ta'lim-tarbiyaga oid qarashlariga bevosita bog'liq ekanligini anglatishdir.

Shu ma'noda Sharq ta'limi tarixi, bevosita pedagogika tarixiga daxldor ushbu qo'llanma muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi talaba-yoshlarning pedagogik fikr taraqqiyotini o'rganish orqali o'tmish merosimizdan, islom ta'limoti asosida yaratilgan axloqiy-ma'naviy boyliklardan xabardor bo'lishi quvonarli holdir. Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabi islom olami buyuk namoyandalarining adolat, insonparvarlik, mehnatsevarlik, Vatanga muhabbat, axloq, odob, imon va e'tiqod haqidagi ta'limot va fikrlaridan farzandlarimiz, talaba-yoshlarning bahramand bo'lishi umuminsoniy qadriyatlarni anglab olishlari, ular haqida tasavvurga ega bo'lishlarida tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan omil bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, IX asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Arab xalifaligining ta'siri susayib, yerli feodallar, xususan, tohiriylar hamda somoniylarning nufuzi kuchaya bordi. X asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda mustaqil feodal davlatlar — Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlarining paydo bo'lishi ham madaniy hayotning yanada ravnaq topishiga olib keldi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko'hna Urganch, Xiva kabi shaharlar o'z davrining madaniyat markazlari sifatida ma'lum bo'ldi. Bu yerlarda savdo-sotiq, ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bir qatorda madaniy aloqalar, bilim o'choqlari rivoj topdi.

O'rta Osiyo ilm-fani, madaniyati rivojida X asr oxiri — XI asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan va Xorazmda shoh Ma'mun boshchiligida tashkil qilingan «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») akademiyasi ham muhim rol o'ynadi.

Umuman olganda, «Ipak yo'li»ning Sharq va G'arbni bog'lashiga omil — aloqa o'choqlari sifatida mashhur bo'lishi, feodal davlatlarning tuzilishi, Xorazmning o'sha davrdagi poytaxti Gurganchda «Dor al-hikma val-ma'rif» (ba'zi manbalarda «Majlis al-ulamo») nomi bilan shuhrat qozongan ilmiy muassasa — Xorazm «Ma'mun akademiyasi»ga asos solinishi natijasida zabardast olimlar yetishib chiqdi. IX — XII asrlardagi yuksalish mahsuli sifatida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ahmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Mahmud az-

Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubrolarni sanab o'tish mumkin.

XIII asr boshida Chingizxon O'rta Osiyoga yurish boshladi va eng yirik hukmdorlardan bo'lgan Xorazmshohga qarshi hujum qilib, Temur Malik va Jaloliddin kabi jasur sarkardalar qarshiligini va qahramonligini yengib, hozirgi Afg'onistongacha bo'lgan yerlarni o'ziga tobe qildi. Shaharlar va madaniy markazlarni vayron qildi, aholini qirdi. O'lka to'lig'icha mo'g'ullar mustamlakasiga aylandi. Zulm kuchaydi, mustamlakachilikka qarshi mahalliy xalq noroziligi oshib bordi va xalq qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Bularning hammasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi, madaniyat o'choqlari so'ndi.

XIV asr o'rtalarida mayda feodal hokimlar o'rtasida nizo kuchaydi, iqtisod va siyosatda o'ta pasayish yuz berdi. Ana shu paytda Amir Temur siyosat maydoniga chiqdi. U mamlakatni mo'g'ullardan ozod qilish, xalqlarni birlashtirish uchun kurash olib bordi. Movarounnahr va Xurosonda katta mustahkam davlat barpo etib, uni 1370-yildan 1405-yilgacha boshqardi.

Amir Temur va temuriylar davrida naqshbandiya tariqati keng tarqaldi va targ'ib etildi. Temuriy zodagonlarning ko'pchiligi — shoir, olim, fozil, hunarmand va kosiblar bu ta'limotga amal qildilar. Temuriylar davrida Xoja Ahror Valiy shuhrat qozondi. Bu davrning eng mashhur shoirlari Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham naqshbandiya ta'limotini targ'ib qilish va uni rivojlantirish yo'lida faol ish olib bordilar.

XIV asr oxiri va XV asrlarda yashab ijod etgan Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Jomiy, Jurjoniy, Taftazoniy, Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Davoniy, Koshiy, Behzod, Alisher Navoiy, Voiz Koshifiy kabi qator olim, mutafakkirlar, badiiy so'z ustalari, san'atkorlar bu davr madaniyati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

XV asrdagi ma'naviy yuksalish an'analari uzoq vaqtga qadar o'z izlarini saqlab qoldi. Bu davrda o'zbek va tojik adabiyoti tarixida katta iz qoldirgan Sayid Nasafiy, Turdi, Mashrab, Bedil va So'fi Olloyor kabi mashhur shoirlar yetishib chiqdi.

Qo'qon xonligida XVIII asr oxiri — XIX asrning birinchi yarmida G'oziy, Maxmur, Uvaysiy, Nodirabegim, Gulxaniy kabi shoirlar yashab ijod qildilar. Ular o'z g'azallari, devonlari bilan Movarounnahr va Turkiston madaniyati rivojida muhim rol o'ynadilar va umumiy o'zbek ma'naviy merosini boyitishga katta hissa qo'shdilar.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida o'zaro qarama-qarshilik kuchaydi. Bundan

foydalangan chor hukumati o'zining yovuz niyatlarini amalga oshirishga kirishib, 1853—1895-yillar davomida O'rta Osiyoni bosib oldi, mustamlakachilik siyosatini kuchaytirdi, bu siyosatga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'olonlari ayovsiz bostirildi.

O'lkada yuz bergan bu o'zgarishlar ilg'or ziyolilar dunyoqarashida ma'lum darajada o'z ifodasini topdi. Ular o'lkada chor ma'murlari o'tkazgan jabr-zulm va ko'rsatgan qarshiliklariga qaramay, ilm-fan va madaniyatning umumiy rivojiga o'z hissalarini qo'shdilar. O'zlaridan oldin o'tgan ulug' mutafakkirlarning insonparvarlik va pedagogik fikr-g'oyalari davom ettirdilar. Buni Ahmad Donish, Furqat, Muqimiy, Avaz O'tar, Zavqiy va boshqalarning ijodida ko'rish mumkin.

Rus mustamlakachilik siyosati tufayli hayotda ro'y berayotgan turli fojiali voqea-hodisalar o'lkada jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga turtki bo'ldi. Bu harakat XX asr boshlarida shakllanib, tez orada butun turkiy va xorijiy Sharq o'lkalaridagi musulmonlar orasida keng yoyildi.

Jadidlar tarix maydoniga, avvalo, milliy mustaqillik uchun mustam-lakachilikka qarshi kurash shiori bilan chiqdilar. Shu bois bu harakat aholining ziyoli qismi e'tiborini tezda o'ziga jalb qildi. Ayniqsa, yosh ziyolilar — olimlar, shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, huquqshunoslar, matbaachilar, ilg'or fikrli savdogarlar jadidchilik harakatining oldingi saflarida bo'ldilar.

Umuman, Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishi va rivojlanishida «Yosh buxoroliklar» katta faoliyat ko'rsatdilar. Abduvohid Burhonov, Usmon Xo'jayev, Behbudiy, Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Sadridin Ayniyar ushbu harakatga rahbarlik qildilar. Bu harakatda Qori Abduvohid, Abduqodir Shakuriy, Mullo Ismatillo Rahmatullozoda kabi ma'rifatparvar ziyolilar ham faol ishtirok etdilar.

Keyinchalik jadidchilik g'oyalari ta'siri ostida pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan va yangi usul maktablari borasida jonkuyarlik qilgan bir qator ma'rifatparvar adib va allomalar ham yetishib chiqdilar. Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy va boshqalar shular jumlasidandir.

Xalqimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, mamlakat o'tmishiga, boy tarixiy merosiga, ma'naviy qadriyatlar va an'analarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Davlatimiz rahbarining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» kitobida ta'kidlanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch — ma'naviyatga eng ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tibor qaratildi. Osori atiqalarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni

tiklash, qadimiy tariximizni to'laqonli yoritish imkoniyati tug'ildi. Ajdodlar merosini o'rganishning ma'naviy va huquqiy asoslari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etila boshlandi.

Bir so'z bilan aytganda, to'plamda keltirilgan qomusiy bilim egalari va pedagogik fikr taraqqiyotiga hissa qo'shgan olimlar IX — XX asr madaniyati vakillaridir. Ajdodlarimiz tafakkuri bilan yaratilgan, barcha sohalarni o'zida qamragan qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Mazkur boylikni baholi qudrat o'z vorislari — yoshlarga yetkazish, ularning ongi va qalbiga singdirish orqali ularda milliy g'ururni uyg'otib, milliy o'zlikni anglash, tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirishdek bir vazifani bajarishda hissa qo'shishni maqsad qilib qo'ygan edik. Ushbu ma'noda qo'llanma bugungi yoshlarimizni o'tmish merosimizdan xabardor qilishda katta ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

*Gulmurod NIYOZOV,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*



MUHAMMAD IBN MUSO AL - XORAZMIY

(783 — 850)

Jahon matematika faniga salmoqli hissa qo'shgan alloma — Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy 783-yilda Xorazmda dunyoga kelib, 850-yilda Bag'dodda vafot etgan.

Muhammad Xorazmiy matematika fani bilan chuqur va har tomonlama shug'ullangan olimlardan biri bo'lib, u mazkur sohaga tegishli asarlarning arab, fors, yunon va hind tillaridagi nusxalarini ham qunt bilan o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Xalifa Xorun ar-Rashid va uning o'g'li al-Ma'mun xalifalik qilgan davrlarda tashkil etilgan Bag'doddagi «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi»)ga al-Xorazmiy ham boshqa olimlar qatori taklif etilgan.

813—833-yillarda Xorazmiy mazkur Akademiyada Ahmad ibn Muhammad al-Farg'oniy, Ahmad ibn Abdulla Marvaziy, uning o'g'li Abu Ja'far, Abbos ibn Sayid Javhariy kabi olimlar bilan hamkorlikda ilmiy ishlar olib borgan.

«Bayt ul-hikma»da matematika, geodeziya, geografiya, falakiyot va boshqa sohalar bo'yicha tadqiqotlar olib boriladi va al-Xorazmiy maktabi yaratiladi. Olimning, ayniqsa, matematikaga oid ilmiy merosi jahon ahamiyatiga ega bo'ladi.

Uni mashhur qilgan asari: «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l-muqobala» («Aljabr val muqobala»).

Asarlari: «Hisob al-hind» («Hind arifmetikasi haqida kitob»), «Qisqargan sindhind» («Algoritm hind hisobi»), «Xorazmiy ziji», «Kitob surat al-arz» («Yerning surati kitobi»), «Yer sathini o'lchash» («Astrologiya»), «Yahudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash», «Asturlob yasash haqida kitob», «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-tarix» «Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida» va boshqalar.

Matematika sohasidagi kashfiyotlari: hisoblash matematikasini rivojlantirdi, tenglamalar haqidagi tushunchalarni alohida fan

darajasiga ko'tardi, algebra faniga asos soldi, yangi geometrik kashfiyotlar yaratdi, geometrik va algebraik munosabatlar orasidagi bog'lanishni aniqladi, hozirgi zamon matematik mantiq va kibernetika fanlarining muhim qismi bo'lgan algoritm tushunchasini yaratdi.

Ma'rifiy qarashlari va g'oyalari:


- bilimlarni izchil va mantiqiy bayon etish;
- ko'rgazmali va savol-javob asosida bilim berish;
- malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- bilimlarni sinash metodlaridan foydalanishni maslahat berdi.

Uning fikriga ko'ra: «Sezgi» orqali bilish — bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bayon orqali bilish esa haqiqiy bilishning muhim tomonini namoyon etadi. Al-Xorazmiy sinov-kuzatish va sinov-usullarini olib kirish orqali bilish nazariyasiga asos soldi.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash tizimining Yevropada, qolaversa, butun dunyoga tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etadi. Yevropaga hind raqamlari arablar orqali o'tganligi uchun ular «arab raqamlari» deb ataladi va hozir ham shunday atalib kelinmoqda. Yevropaliklar uzoq vaqtgacha hind raqamlariga asoslangan hisob tizimini «algorazmi» deb atab keldilar. Faqat XVI asr o'rtalaridagina bu nom «arifmetika» iborasi bilan almashtiriladi. Shundan keyin to hozirgi kungacha «algorazmi» yoki «algoritm» deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi. Bu ibora bilan al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

Xulosa qilib aytganda, al-Xorazmiy Yevropa va Sharqda falakiyot va matematika sohasida yangi davr ochdi. U ilmiy bilim, ta'lim usullari va ilm-fanga qo'shgan ulkan hissasi bilan insonni aqliy kamolga yetkazishda, ta'lim-tarbiyada o'z o'rniga ega.





AHMAD AL - FARGʻONIY

(798 — 865)

Jahon fani va madaniyatiga yirik hissa qoʻshgan qomusiy allomalardan biri Ahmad al-Fargʻoniy Abulabbos ibn Muhammad ibn Kasir boʻlib, u taxminan 798-yilda Fargʻonada tugʻilib, 865-yilda vafot etgan.

Manbalarda atyilishicha, u boshlangʻich taʼlimni olgach, oʻsha davrning yirik ilm-maʼrifat markazi boʻlgan Bagʻdoddagi «Bayt ul-hikma»da faoliyat yuritib, riyoziyot, falakiyot, geografiya, hikmat va boshqa qator tabiiy-ilmiy fanlar sohasida ilmiy kashfiyotlar yaratgan. Mana, 1200 yildan buyon al-Fargʻoniy yaratgan kashfiyotlar insoniyatga xizmat qilib kelmoqda.

XII — XIII asrlarda arab musulmon olimlarining asarlari Yevropada lotin tiliga tarjima qilindi. Shu jumladan, al-Fargʻoniy asarlarining ham Yevropada tarjima qilinishi uning jahon ilm ahli oʻrtasida «Birinchi arab astronomi» degan nom olishiga asos boʻldi.

Uni mashhur qilgan asari: «Kitob al-harakat as-samoviya va javomiʼ ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi»).

Asarlari: «Kitob al-komil fiy sanʼa-al-asturlob» («Asturlob yasash sanʼati haqida mukammal kitob»), «Kitob amal bil asturlob» («Asturlob bilan ishlash kitobi»), «Jadval al-Fargʻoniy» («Al-Fargʻoniy jadvallari»), «Risola fiy maʼrifat al-avqoti allatyi yakun ul-qamaru fiyho favq al-arzi av tahtiho» («Oyning yer ostida va ustida boʻlish vaqtlarini aniqlash haqida risola»), «Hisob ul-aqolim as-sabʼa» («Yetti iqlimning hisobi»), «Quyosh soatini yasash kitobi», «Taʼlil li zij al-Xorazmiy» («Al-Xorazmiy ziji»ning nazariy qarashlarini asoslash), «Kitob amal ar-raximot» («Marmarning xizmati haqida kitob»), «Risolat ul-fusul madxal fil-Majistiyy va huva salosina faslun» («Oʻttiz bobdan iborat Majistiyya kirish fasllari risolasi»).

Kashfiyotlari: Nil daryosining sathini oʻlchash asbobi hamda asturlob yasashga oid asbob-uskunalar, quyosh soatini yasash.

Yuqoridagi risolalarning mavzu va mazmunidan Ahmad al-Fargʻoniyning chizmachilik sanʼati sir-asrorini puxta bilgani yaqqol koʻzga tashlanadi. Chunki asbob-uskunalar dastlab qogʻozga chizma holda

tushiriladi, keyin amaliy mehnat va tajribalar orqali jism sifatida shakllanadi. Aniqrog'ı, Ahmad al-Farg'oniyy «Falakiyot asoslari» nomli ilmiy-nazariy jihatdan mukammal kitobi bilan shuhrat qozondi. Akademik T.N. Qori-Niyoziy so'zlari bilan aytganda, o'sha asar «astronomik bilimlarning o'ziga xos qomusidir».

Ahmad al-Farg'oniyy Sharq va G'arb mamlakatlarida Alfraganus nomi bilan tanilgan va shuhrat qozongan.

Qomusiy olimning ilmiy-ijodiy faoliyatini diqqat bilan kuzatar ekanmiz, uning qaysi sohada bo'lmasin, ilmiy ishni boshlashdan oldin shu maqsad va vazifani amalga oshirishi uchun kerakli asbob-uskunalarni tayyorlab, amaliy shart-sharoit yaratganini ko'ramiz. Ahmad al-Farg'oniyyning falakiyot ilmiga doir asari so'nggida geografik joylar jadvali o'rin olgan bo'lib, unda dastlab sharqiy viloyatlar joylashtirilgan va ular Sharqdan G'arbgacha tomon birin-ketin ko'rsatilgan.

Hozirgi kunda al-Farg'oniyyning sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi ham hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum» asarini, odatda, «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomi bilan ham atashadi — qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. «Asturlab yasash haqida kitob» — qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, «Asturlab bilan amal qilish haqida kitob» — birgina qo'lyozmasi Rampurdagi kutubxonada (Hindiston), «Al-Farg'oniyy jadvallari» — qo'lyozmasi Patnadagi kutubxonada (Hindiston), «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola» — qo'lyozmalari Gota va Qohira kutubxonalarida, «Quyosh soatini yasash haqida kitob» — qo'lyozmalari Halab va Qohira kutubxonalarida saqlanmoqda. «Al-Xorazmiy ziji»ning nazariy qarashlarini asoslash asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan.

Umuman olganda, Ahmad al-Farg'oniyy tinimsiz samarali ilmiy mehnati va faoliyati tufayli buyuk falakiyotshunos sifatida, ilmiy riyoziyot va geografiya sohasida katta obro' qozondi. Qolaversa, u Sharq mamlakatlarida «Hosib» (matematik) degan laqab olgani ma'lum. Bu unga riyoziyot ilmi bo'yicha berilgan yuksak baho edi.





IMOM MUHAMMAD IBN ISMOIL AL - BUXORIY

(810 — 872)

«Sahih» yoʻnalishining asoschisi, yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom al-Buxoriy hadis ilmida «Amir ul-moʻminin», «Imom al-muhaddisiyn» (Barcha muhaddislarning peshvosi) degan sharafli nomlarga ega boʻlgan. U 810-yilning 20-iyulida Buxoroda tugʻilgan. 872-yilning 1-sentabrda Samarqand yaqinidagi Hartang qishlogʻi (hozirgi Poyariq tumani hududi)da 62 yoshida vafot etgan va shu yerga dafn etilgan.

Imom al-Buxoriy 16 yoshida onasi va akasi bilan haj safariga boradi. U safar asnosida Hijoz, Balx, Basra, Kufa, Bagʻdod, Xum, Damashq, Misr, Makka va Madina kabi shaharlarda boʻlib, koʻpgina muhaddislar bilan uchrashadi va ular tomonidan aytilgan hadislarni yod oladi.

Imom al-Buxoriy isteʼdodli, oʻtkir zehqli hamda ziyarak olim boʻlgan. U 1080 muhaddisdan hadis eshitgan va 90 ming nafar kishiga ishonarli hadislarni oʻrgatgan. Maʼlumotlarga koʻra, Imom al-Buxoriy 600 mingga yaqin hadis toʻplagan, 100 ming «Sahih» va 200 ming «Gʻayri sahih» hadislarni yod olgan.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Al-Jomiʼ as-sahih» («Ishonchli toʻplam»), «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari»).

Imom al-Buxoriyning eng katta jasorati: mutaassib ulamolarning gʻalayoni, dushmanlarning turli tuhmat va boʻhtonlariga qaramasdan, qoʻrqmasdan hadislarni «Sahih» («Ishonchli») va «Gʻayri sahih» («Ishonchsiz») ga ajratadi. Alloma bu fikrini ilmiy asoslab beradi.

Asarlari: «At-tarix al-kabir» («Katta tarix»), «At-tarix as-sagʻiyr» («Kichik tarix»), «Al-qiroati xalfa-l-imom» («Imom ortida turib oʻqish»), «Vafʼul-yadini fis-saloti» («Namozda ikki qoʻlini koʻtarish»). Bu asarlarning qoʻlyozmalari bizgacha yetib kelgan. Ammo, «At-tarix al-avvat» («Oʻrta tarix»), «At-tafsir al-kabir» («Katta tafsir»), «Al-jomiʼ al-kabir» («Katta toʻplam»), «Kitob ul-hiba» («Hadya kitobi») nomli asarlari ham boʻlganligi maʼlum, biroq ular bizgacha yetib kelmagan.

Hadislardagi axloqiy-tarbiyaviy jabhalar:

1. Imonning mukammal va mustahkam boʻlishi, toʻgʻri eʼtiqodli

bo'lish, kishilar bilan chiroyli muomala va munosabatda bo'lish, ibodat va itoatga yuz tutmoqqa erishishdir.

2. Insonning ma'naviy kamoloti uning tafakkur doirasi, dunyoqarashi kengligi, ilmiy bilimlarni qay darajada egallaganligi, o'z bilimi bilan atrofdegilar va jamiyatga qanchalik foyda keltirishi bilan o'lchanadi.

3. Islomda barqaror qilingan ilmlar: huquqiy (fiqh), diniy yo'l-yo'riqlar va dunyoviy ilmlardir. Har ikki turdagi bilimlarni chuqur egallash va ularga qat'iy amal qilish har bir mo'min uchun farz hisoblanadi.

4. Ota-onaga g'amxo'rlik, ularni e'zozlash, ota-ona haqqini o'z o'rniga qo'yish insonlar uchun eng yuksak xislat hisoblanadi.

5. Har bir kishining ota-onaga yaxshilik qilishi shartligi, zero, inson bo'ynida ota-onaning haqqi bo'lganidek, bolaning ham haqqi bor.

6. Ma'naviy-axloqiy xislatlarga ega bo'lgan inson ota-onaga, opa-singil, aka-uka va qo'shnilarga yaxshilik qiladi.


7. Ezgulik, iffat, sabr-qanoat va shukronalikni o'zingizga kasb qilib oling. Isrofgarchilik, tamagirlik, ochko'zlik, nafs-u havo hamda shahvoniy hissiyotlarga berilishdan saqlaning.

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatligi, himmatligi va beqiyos saxovatligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o'tkirliги va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyat shuhrat qozongan.

Uning shoh asari «Al-jomi' as-sahih»ga ko'pdan ko'p sharhlar bitilgan bo'lib, muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr ham qilingan. Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunalı targ'ibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zini tiyish lozimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihat va o'g'itlar aks ettirilgan.

Allomaning bugungi kunda Hartang qishlog'ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko'rkam qadamjolaridan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir.





MUHAMMAD IBN ISO AT - TERMIZIY

(824 — 892)

Muhammad ibn Iso at-Termiziy 824-yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'i (hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani)da tug'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar otasi asli marvlik deb qayd etadilar.

Iso at-Termiziy bolaligida ilm o'rganishga qiziqqan, ayniqsa, hadis ilmini chuqur egallagan. U 26 yoshidan qator mamlakatlarga safar qiladi. Hijoz shahrida bo'lib, Makka va Madina shaharlarini ziyorat qiladi. Iroq hamda Xurosonda hadis, fiqh, qiroat, bayon, tarix va boshqa ilmlarni o'rganadi. Mazkur safarda Iso at-Termiziy ustoz Imom al-Buxoriy bilan uchrashadi. U ustoz yordamida hadis ilmidan to'laqonli ravishda xabardor bo'ladi.

Iso at-Termiziyning zehni o'tkirligi, xotirasi va yod olish qobiliyatining kuchliligi tufayli Imom al-Buxoriy uni faqatgina shogird sifatida emas, balki hamkor, hamfikir va do'st sifatida ham hurmat qilgan.

At-Termiziy 20 yil o'zga yurtlarda yurib, hadis o'rganadi va 864-yili o'z vatani Termizga qaytib keladi. Yig'gan hadislarini ustoz Imom al-Buxoriy maslahati bilan kitoblar ta'lif qilishga kirishadi.

Uni mashhur qilgan asari: «Al-Jomi' as-sahih» («Ishonarli to'plam», ya'ni «Sunani Termiziy»).

Asarlari: «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg'ambarimizning alohida fazilatlarini»), «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislarning og'ishlari»), «Risola fi-l xilof val jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»), «At-tarix» («Tarix»), «Kitob az-zuhd» («Taqvo haqida kitob»), «Al-asma va-l-kuna» («Ismlar va kunyalar»).

Imom al-Buxoriy o'z shogirdi Imom at-Termiziyning alqab, kamtarlik bilan: «Sen mendan bahra topganingdan ko'ra, men sendan ko'proq bahra topdim», — deydi. Bu at-Termiziyga berilgan juda katta baho edi («Al-Mirqot», 1-jild, 22-bet).

«Munozarasiz, at-Termiziy o'z asarining imomi bo'lib, turli tasniflar sohibidir» (Sam'oniyy, «Al-ansob» kitobi).

«Ul zot «Hadis ilmida iqtifo etilganidek imonlilardan biridir» (Ibn Xalqon).

«Termiziy umrlarining oxiriga borib koʻzdan qoladi» (Al-Bagʻdodiy, «At-tahzib» kitobi).

«Termiziy imom va hofiz edi. Bebaho asarlar tortiq qildi. «Al-jomiʼ al-kabir» («Katta toʻplam»), yaʼni «Sunani Termiziy» («Termiziy sunnatlari») bu asarlarning eng mukammalidir» (Ibn al-Asir, «Tarix» kitobi).

«Mening uchun Termiziyning kitobi Buxoriy va Muslim kitoblaridan foydaliroq. Chunki Buxoriy va Muslim kitoblaridan faqat mutaxassis olimlarga istifoda etadi. Termiziydan esa har kim foydalanishi mumkin» (Abu Ismoil al-Ansoriy).

At-Termiziy asarlarida bayon etilgan maʼnaviy-axloqiy gʻoyalar:

1. Insonlarni halollik, adolat va eʼtiqodli boʻlishga hidoyat qilish.
2. Takabburlik, nodonlik va ilmga eʼtiborsizlikdan saqlanish.
3. Kishi diyonatni, poklikni, mehnatsevarlikni va muruvvatli boʻlishni oʻziga odat qilib borishi.
4. Yoshi kattalar, ota-ona va qarindoshlarga hurmatda, kichiklarga esa mehr-shafqatli boʻlish.
5. Kishilarni baxillik va mol-mulkka hirs qoʻyishdan qaytarish.

Muhammad ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozib qoldirilgan asarlarda oʻz ifodasini topgan hadislar ham Imom al-Buxoriy tomonidan bayon etilgan hadislar kabi insonni halollik, adolat, eʼtiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shafqat, yoshi kattalar, ota-ona va qarindoshlarga hurmat gʻoyalarini ilgari surish xususiyatiga koʻra shaxs taʼlimi va tarbiyasini tashkil etishda katta ahamiyatga ega.



ABU NASR FOROBIY



(873 — 950)



Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Forobiy Sirdaryo qirg'og'idagi Forob — O'tror degan joyda dunyoga kelgan. U Toshkent (Shosh), Samarqand, Buxoro va Bag'dod shaharlarida o'z bilimini oshirgan.

Forobiy umrining so'nggi yillarini Halab va Damashq shaharlarida o'tkazgan. Uzoq yillar Damashq shahrining chekkasidagi bir bog'da qorovullik qilib, faqirona hayot kechiradi va tinimsiz ilmiy ish bilan shug'ullanadi. Forobiy 950-yilda Damashq shahrida vafot etadi va «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn etiladi.

Manbalarda xabar berilishicha, Forobiy yetmishdan ortiq tilni bilgan va undan 160 dan ortiq ilmiy asarlar meros qolgan.

Mashhur yunon faylasufi Aristotel(Arastu)dan keyin Sharqda o'z bilimi, fikr doirasining kengligi bilan nom chiqargan Forobiyni «Muallimi soniy» («Ikkinchi muallim») deb ataydilar.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Fozil odamlar shahri» va «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida».

Asarlari: «Kalom fi-l javhar» («Substansiya haqida so'z»), «Uyunul masoil» («Masalalar manbayi»), «Kitob fi-l navomis» («Qonunlar haqida kitob»), «Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun» («Falak harakatining doimiyliigi»), «Kalom fi-l aql al-kabir» («Kattalarning aqli haqida so'z»), «Kitob fi-l aql al-sag'ir» («Yoshlarning aqli haqida kitob»), «Kitob al-madhal ila-l mantiq» («Mantiqqa kirish kitobi»), «Kitob al-burxon» («Isbot kitobi»), «Kitob-sharoit al-qiyos» («Sillojizm shartlari kitobi»), «Kitob fi ixso al-ulum va at-ta'rif» («Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi»), «Kitob fi ashyo allati yaxtoju antilamma qalb al-falsafa» («Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob»), «Kitob ul musiqi al-kabir» («Musiqi haqida katta kitob»), «Kalom fi-l musiqiy» («Musiqi haqida so'z»), «Risola fi a'zo al-insoniya» («Inson a'zolari haqida risola»), «As-siyrat al-fazila» («Fazilatli xulqlar»).

Forobiyning ma'rifiy qarashlari va g'oyalari:

1. Ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib borish zarurligini, ularning

har biri insonni kamolotga yetkazishda o'z o'rni va o'ziga xos xususiyati borligini ta'kidlaydi.

2. Ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi mavjud jamiyat uchun yetuk insonni tarbiyalash deb biladi.

3. Ta'lim insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya esa nazariy fazilatlarini, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan axloq me'yorlarini va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deb ta'rif beradi.

4. Axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik manfaatini yuqori qo'yish, haqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish, adolatlilik kabi xislatlarni tushunadi.

Forobiy ta'limotiga ko'ra:

1. Ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganilsa, kasb-hunarga yetarli malaka hosil qilinadi.

2. Ta'lim-tarbiyaga oid ta'limotning asosida inson kamolotini shakllantirish g'oyalari yotishi lozim.


3. Insonning kamolotga yetishishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Forobiy insoniylik, adolat, yetuk jamoa, komil inson muammosini o'rta qo'ygan va ularni nazariy jihatdan asoslab bergan allomadir.

Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Masalan, axloq-odobli yetuk inson o'n ikki fazilatga ega bo'lmog'i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o'zaro munosabatlari mustahkamlanib, yaxshilik tomon yo'nalishida vujudga kela boradi. Forobiyning fozil jamoa va komil inson haqidagi ta'limotlari so'nggi olim-mutafakkirlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Forobiy ma'rifiy-axloqiy ta'limotining asosida komil insonni shakllantirish, ya'ni faqat jamiyatda, o'zaro munosabatlar jarayonida komillikka erishadi, degan falsafiy qarashi yotadi.

Forobiy g'oyasiga ko'ra insonning kamolga yetishida ham aqliy, ham axloqiy tarbiyaning o'zaro aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi bilan diqqatga sazovordir.



ABU RAYHON BERUNIY

(973 — 1048)



Qomusiy olim Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil 4-sentabrda Xorazmning Qiyot (Kot) shahrida dunyoga kelgan. 1048-yili G'aznada vafot etgan.

Beruniy o'sha davrning murakkab sharoiti ta'sirida Xorazmda boshlang'ich ta'limni olgach, Kot —

Qiyot, Jurjon, Ray (Tehron)da yashab ijod etadi. Raydan yana Jurjonga qaytib, kelajakdagi ustozlari Abu Saxl Iso Masihiy bilan tanishadi va undan ta'lim oladi.

1004-yilda Beruniy Ma'mun II tomonidan Xorazmga chaqirib olinadi va u Urganchda tashkil etilgan «Majlis al-ulamo» nomli ilmiy markazda Sharqning bir qator yirik olimlari bilan faoliyat ko'rsatadi. Beruniy xorazm tili bilan birga, sug'diy, forsiy, sureniy, yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto, qadimgi hind tili — sanskritni ham o'rgangan.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston».

Asarlari: «Turarjoylar orasidagi masofani tekshirish» («Geodeziya»), «Xorazmning mashhur kishilari», «Mas'ud qonuni», «Mineralogiya», «Kartografiya», «Globus yasash kitobi», «Kitob as-Saydona fi-t-tib» («Saydona»), «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar».

Kashfiyotlari: Sharqda birinchi bo'lib, Yer va Osmon globusini yasadi, qimmatbaho toshlarni ishlash usuli, yer osti boyliklarini aniqlashning ilmiy-nazariy asosini yaratdi.

Beruniyning ma'rifiy qarashlari va ma'naviy-madaniy fikrlari:

1. O'quvchiga bilim berishda: o'quvchini zeriktirmaslik, bilim berishda bir xil narsalarni yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik, uzviylik, izchillikka e'tibor qaratish, yangi mavzuni qiziqarli va ko'rgazmalilik asosida bayon etishga e'tibor berish.

2. Uning e'tirofiga ko'ra, inson kamolotiga ta'sir etuvchi uch muhim usul — irsiyat, muhit va tarbiyadir.

3. U insonning ezgu tilakka yetishib, yaxshi nom qozonishiga to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar — ziqnalik, yolg'onchilik, munofiqlik,

manmanlik, takabburlik, boylikka ruju qo'yish, tamagirlik, g'azab va johillik deb biladi.

4. Beruniy insoniyatning haqiqiy kamolotini zohiriy va botiniy go'zallikda, axloqiy barkamollikda deb biladi.

5. Olim nazarida inson kamolga yetishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish, kichik yoshidan boshlab mehnatga o'rganish va yuksak axloqqa e'tibor berishda deb biladi.

6. Beruniy ilmiy bilishga oid ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Beruniy til va adabiyot, tarix, geografiya, geodeziya, geologiya, mineralogiya fanlari, tibbiyot va dorishunoslik, fizika, falakiyot ilmiga oid tadqiqotlarni amaliyotda sinab ko'rib, fanda haqiqat ustuvor turishini ta'kidlaydi.

Beruniy tomonidan ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarni qamrab olgan 150 dan ortiq yirik ilmiy asarlar yaratilgan bo'lib, u «Sharq Renessansi» davri qomusiy olimlaridan biri sifatida nom qozondi.

Beruniy nazarida inson kamolotga yetishining eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. U ilmiy bilishga oid, ta'lim metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lim nazariyasida o'ziga xos maktab yaratdi.

Yoshlarni tarbiyalashda esa axloqiy mehnat tarbiyasi, oila tarbiyasi, insonning shaxsiy gigiyenasi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, hamkorlik haqidagi tushunchalar katta ahamiyatga egadir. Olim axloqlilikning belgilari sifatida yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat va hunar egallash, poklik, go'zallikka intilish kabilarni ilgari surgan. Bularning barchasini u yaratgan asarlarida ijtimoiy-falsafiy fikrlarga bog'lab tushuntirgan.





ABU ALI IBN SINO

(980 — 1037)

Ibn Sinoning asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh bo'lgan. Mashhur qomusiy olim, tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, tilshunos, shoir Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida 980-yilda kichik amaldor oilasida tug'ilgan. Sinoning bolalik va o'smirlik yillari o'tgan Buxoro shahri Somoniylar davlatining yirik madaniy markazi bo'lib, nodir kitoblarga boy kutubxonalari va ilm markazi sanalmish madrasalari bor edi.

Jahonning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning ilmiy munozaralarida yosh Ibn Sino ham qatnashib, turli fanlarga oid bilimlarini chuqurlashtirib borgan. U olimlardan hind hisobi, fiqhdan bilim olgan. Keyin esa faylasuf Abu Abdulloh Notiliydan falsafa, mantiq, handasa va boshqa fanlardan ta'lim olgan.

X asr boshlarida Ibn Sino ijtimoiy-siyosiy vaziyat tufayli Xorazmga ko'chib o'tadi va Abu Rayhon Beruniy boshqarayotgan «Ma'mun akademiyasi»da ilmiy ish bilan shug'ullana boshlaydi. Ibn Sino Gurganj, Ray va Hamadonda, umrining so'nggi yillarida Isfahonda yashab, 1037-yilda vafot etadi. Ibn Sinodan 450 dan ortiq ilmiy asarlar meros bo'lib qoldi.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Tib qonunlari» («Kitob al-qonun fit-tib») — beshta mustaqil katta asardan tashkil topgan: ularning har biri ma'lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi; «Kitob ash-shifo» («Shifo kitobi») — 22 jilddan iborat.

Asarlari: «Hayy-ibn Yaqzon», «Al-ishorat», «Risolat at-tanbihot», «Risolat at-tayr», «Risolat fi-l-ishq», «Risolat daf al-g'am min al-mavt», «Risolat al-qadr», «an-najot», «Donishnoma», «Al-ishorat va-t-tanbihot» hamda «Javome' ilm ul-musiqiy», «Kitob ul-insof» (20 jildlik), «Kitob lison ul-arab» (10 jildlik), «Salomon va Ibsol», «Yusuf haqida qissa», «Urjuza» — tibbiy doston va boshqalar.

Ibn Sinoning umumbashariy qadriyatlarga oid ta'limotlari: Do'stlik, hamjihatlik, hamkorlik, insonparvarlik ta'sirida inson inson bilan, xalqlar xalqlar bilan, millatlar millatlar bilan yaqinlashadi, do'stona

munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyot yuzaga keladi va rivojlanadi.

Ibn Sino tasnifiga ko'ra, fanlar 2 guruhga — falsafa (etika, iqtisodiyot, siyosat) va amaliy falsafa (fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o'rganuvchi fanlar)ga bo'linadi.

Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy g'oyalari: yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, rahmat va azob-uqubat, saxiylik va baxillik, kamtarlik va maqtanchoqlik, vafodorlik va bevafoqlik.

Ibn Sino talqinida axloqiy xislatlar: aqllilik, mo'tadillik, g'azab, chidam, saxiylik, ziyraklik.

Uning ma'rifiy g'oyalari:

1. Bilimlarni anglashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak.

2. Inson kamolotida aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyani o'zaro aloqadorlikda amalga oshirishga e'tibor berish lozim.

3. O'quvchilarni haqiqiy bilim bilan qurollantirish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirishga bog'liqdir.

4. Ibn Sino har bir axloqiy xislatlarning ta'rifini beradi:

— mo'tadillik — tan uchun zaruriy oziq va xulq me'yorlariga to'g'ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik;

— samimiylik — yordamga muhtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;

— g'azab — biror ishni bajarishda jasurlik;

— chidamlilik — inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;

— aqllilik — biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat deydi.

Ibn Sinoning insonni ulug'lovchi olim sifatida, uning har tomonlama rivojlanishiga ishongan holda, avvalo, bilimlarga ega bo'lish va bu bilimlarni egallash vositasida aqliy tarbiyani amalga oshirishga oid qarashlari diqqatga sazovordir.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham axloqiy-estetik hamda jismoniy tomondan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezonini sifatida talqin etiladi.

Olimning buyuk xizmatlaridan biri shundaki, u insonning mehnati, qobiliyati, aql-zakovatini ulug'laydi, inson tafakkurining tantana qilishi kerakligini tinmay targ'ib qiladi.





NOSIR XISRAV



(1004 — 1088)

O'rtta Osiyo madaniyatining ulug' donishmandi va mutafakkiri Nosir Xisrav Qabodiyonda 1004-yilda taval-lud topgan. Uning ajdodlari o'z davri-ning obro'li davlatmand kishilaridan hisoblangan.

Uning ismi Abu Mu'iniddin Nosir, otasining ismi esa Xisrav bo'lib, she'rlarida «Hujjat» taxallusini qo'llagan. Nosir Xisrav zamon an'anasiga ko'ra, boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan joyida oladi va keyinchalik Marv, Balx madrasalarida tahsilni davom ettiradi.

Nosir Xisrav dunyoqarashining shakllanishi, o'sha zamon ilm-u madaniyati durdonalaridan bahramand bo'lishida uning Misr, Shom, Iroq, Qohira, Iskandariya, Damashq, Basra, Hijoz, Halab, Makka, Madina, Eron, Turkiston va Hindiston shaharlari bo'ylab qilgan safarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Nosir Xisrav saroy ahli, reaksion kuchlar quvg'inidan qochib, umrining so'nggi yigirma yilini Yumg'on (Badaxshondagi qishloqlardan biri)da o'tkazadi va ko'p asarlarini shu yerda ijod qiladi. Uning sal kam chorak asrluk umri shu yerda o'tadi va 1088-yilda shu yerda vafot etadi.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Ro'shnoinoma» va «Saodatnoma»dir.

«Ro'shnoinoma» ixcham masnaviy bo'lib, 592 baytdan iborat. Asarda donishmandning diniy, falsafiy, ma'rifiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlari rangin misralarda yuksak shoirona nazokat bilan kuylanadi.

«Saodatnoma» 300 baytdan iborat bo'lib, unda «Ro'shnoinoma»dagi ayrim masalalar takrorlangan. Shuningdek, bir qator falsafiy-axloqiy muammolar o'z ravnaqini topgan.

Asarlari: Alloma adabiy, ilmiy, falsafiy, hikmatli asar va risolalarini, o'sha davr an'anasiga ko'ra, fors va arab tillarida yaratdi. Bizgacha mutafakkirning ikkita she'rlar devoni (biri forsiy, ikkinchisi arab tilida), «Zod ul-musofirin», «Xon ul-ixvon», «Vajhi din», «Bo'ston ul-uqul», «Jome' ul-hikmatayn» kabi ma'naviy-diniy asarlari, to'qson ikki falsafiy, mantiqiy savollarga javob usulida yozilgan nasriy risola va mashhur «Safarnomasi» yetib kelgan.

Nosir Xisravning falsafiy-axloqiy g'oyalari va ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari:

1. U insonda asliy-ilohiy jihat borligi va u o'z haqiqatini bilib olishga qodir ekanligini ta'kidlaydi. Buning uchun olim insonni hayotini behuda o'tkazmaslikka, asliga yetish uchun sa'y-harakat qilishga, ilm egallashga va moddiy ehtiyoj girdobiga tushmaslikka da'vat etadi.

2. Insonning poklanish jarayoni uning ruhiy jihatdan takomil topishiga va axloqni sof tutishga har tomonlama yetishishiga bog'liqdir.

3. Faylasuf olim talqinida axloqqa oid shunday qarash mavjud: aslida odamlarning yomoni bo'lmaydi. Yomon tarbiya ko'rgan, fe'l-u atvori yaxshi yoxud noloyiq insonlar bo'lishi mumkin. Shunday ekan, asosiy diqqat axloqiy tarbiya muammolariga qaratilmog'i lozim.

4. Shoir aytadi: «Ma'naviy jihatdan ulg'aymoqchi bo'lsang, marta-bangni yuqori ko'tarishni istasang, jahonning ulug'lariga yaqinlashishni xohlasang ilm o'rgan, aql-u idrokingni takomillashtir».

5. Jafokash pahlavon mehnat chekodur,

To'kib ter, barchani rizqin ekodur.


6. Alloma shoir o'z asarlarida noinsof, adolatsiz, takabbur, raiyat, ilm-fan, mehnat ahliga yomon muomala-munosabatda bo'luvchi, poraxo'r, bema'rifat, johil, zulm-u jabrdan huzur qiluvchi hokim va amaldorlar faoliyatini qoralaydi. Yuksak odamiylik sifati va fazilatlariga ega bo'lishga chorlaydi.

Nosir Xisravning ma'naviy merosi pand-u hikmat bobida ulkan xazinani eslatadi, uning katta-yu kichik asarlarida axloqiy qarashlar markaziy o'rin tutadi. Uningcha yomon bilan yaxshi, xayr-u saxovat va baxillik orasidagi farqni ajrata bilish uchun inson, birinchi galda, o'zligini yaxshi anglab olishi lozim.

Mo'tabar donishmand ijodidagi umumbashariy ma'naviy qadriyatlardan yana biri o'zgalarga nisbatan adolatli, insofli bo'lish, qashshoq-u notavon, jismoniy jihatdan zaiflashganlarga rahm-u shafqat ko'rsatish, boshqalarning gunohini kechirish kabi yuksak g'oya va nasihatlardir.

Nosir Xisravning ilm-fanni, insonni, mehnatni, kasb-hunarni ulug'lovchi, adolatsizlikning har qanday ko'rinishini qoralovchi merosi so'nggi avlodlar ma'naviy yuksalishi uchun muhim ozuqa bo'ldi, u xalqning sevimli shoir va mutafakkiriga aylandi.





ABULQOSIM MAHMUD IBN UMAR AZ-ZAMAXSHARIY



(1075 — 1144)

Jahonga mashhur olim, adib va shoir Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy 1075-yilning 19-martida Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tavallud topgan.

Mahmud boshlang'ich ta'limni o'z zamonasining bilimdon kishilari bo'lmish ota-onasidan olgan. Yoshligidan

ilimga zo'r ishtiyoqi bo'lgan Mahmudni otasi Gurganjdagi madrasaga beradi. U madrasani tugatgach, o'sha davrda yirik madaniyat markazlaridan hisoblangan Buxoro, Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod, Hijoz, ikki marta Makka shaharlarida bo'lib, mashhur olim-u fozillardan arab tili va adabiyotini, lug'at, hadis, nahv, fiqh ilmlarini o'rganadi va ko'plab shogirdlar yetishtiradi.

Az-Zamaxshariy 1144-yilning 14-aprelida Xorazmda 69 yoshida vafot etgan.

Uning mashhurlik darajasi: o'z davrining yirik olimi darajasiga ko'tarilgan va «Ustoz ud-dunya» («Butun dunyo ustoz»), «Faxru Xorazm» («Xorazm faxri»), «Jorulloh» («Allohning qo'shnisi») kabi sharaflı unvonlarga ega bo'lgan az-Zamaxshariy arab tili va grammatikasi, adabiyoti, falsafa, tarix, geografiya, uslub va notiqlik san'ati, lug'atshunoslik, adab va aruz ilmi, tafsir, hadis va fiqhga oid asarlari bilan zamonasida shuhrat topgan.

Asarlari: az-Zamaxshariy 56 ta asar yaratgan bo'lib, olimning tilshunoslikka, arab tili grammatikasi va nafis adabiyotga oid «Asos al-balog'a» («Notiqlik asoslari»), «Samin al-arabiya» («Arab tili mag'zi»), «Foiq al-lug'at» («Eng yaxshi lug'at»), «Muhoajtu an-nahviya» («Grammatika hojatlari»), «Muqaddimat ul-adab» («Nafis adabiyotga muqaddima»), «Atvoq uz-zahab» («Oltin shodalari»), «Al minhoj fil-usul», «Rabiy' al-abror va nusus ul-axyor» («Ezgul bahori va yaxshilar bayoni»), «Al-Kustos fi-l aruz» («Aruzda o'lchov(mezon)»), «Al-mustaqot fi-l amsol» («Nihoyasiga yetgan masalalar»), «Muqomat» («Maqomlar»), «Nabolig' ul-kalom» («Nozik iboralar»), «Al-mufasal» kabi asarlari ilmiy ahamiyatga egadir. Olimning «Al-Kashshof» («Ayon qiluvchi») asari Qur'onga bag'ishlangan mukammal tafsirdir.

Shuningdek, «Qofiya» asari madrasalarda o'quv qo'llanma sifatida o'qitilgan.

Allomaning odob-axloqqa oid nasihatlar va nozik iboralari:

1. Nohaqlarga pora beruvchilar zolimlarga yordam beruvchilardir.
 2. Vijdonli odam xavfdan xoli yashasa, xiyonat qiluvchi halokatda yashaydi.
 3. Mard mag'lub bo'lsa ham, tuban tushmaydi.
 4. Past (nomard) kishi o'z naslining balandligi bilan maqtanadi.
 5. Quyosh nuri bekutilmaydi, haqiqat shami so'nmaydi.
 6. Og'zingni misvok bilan pok qilding, koshkiydi endi uni yolg'on, g'iybat, chaqimchilik, bo'hton bilan iflos qilmasang.
 7. Agar tilingni tiymasang, jilovingni shaytonga berib qo'lasan. Til qilichining yarqiroqligi uning to'g'ri so'zidir. Shuning uchun tilingni faqat to'g'ri so'z bilan aylantir.
 8. Ayol kishida uning husni jamoli uchun emas, balki uning pokiza iffati bilan chiroyi jam bo'lgandagina haqiqiy barkamollik hosil bo'ladi.
 9. Siyratini go'zal sifati va xulqlari bezamagan odam qanchalik chiroyli kiyinmasin, baribir, ko'rkam bo'la olmaydi.
 10. Yomon, xasis kishi har qanday joyda la'natlanadi, saxiy, karim kishi har joyda izzat-ikromda bo'ladi.
 11. Halol-u pokiza kishi doimo xotirjam, tinchdir. Birovga yomonlik va xiyonat qiladigan kishi mudom behalovatdir.
 12. Seni kasodga uchrashdan ogoh qiluvchi kishiga lutf bilan muomalada bo'l. Qo'rqma, zarari yo'q, deb yupatuvchilardan uzoqroq bo'l.
 13. Tog' cho'qqisiga chiqqan kishi undan yiqiluvchidan ko'proq ogoh bo'lib turmog'i lozim.
- Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'at-shunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.





UMAR XAYYOM



(1048 — 1123)

Sharq she'riyatining yirik vakili, zamonasining buyuk allomasi, faylasuf, matematik va astronom mavlono Umar Xayyom 1048-yilda Nishopur (Eron)da tavallud topgan va 1123-yili 75 yoshida ona shahrida vafot etgan. Nishopurdan Marvga olib boriladigan yo'l bo'yidagi bog'da dafn etilgan.

Umar Xayyomning bolalik yillari Nishopurda o'tgan. Balx, Buxoro, Samarqand, Isfahon kabi shaharlarda tahsil oladi va o'z zamonasining barkamol qomusiy olimlaridan biri bo'lib yetishadi.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Evklid kitoblariga sharhlar», «Matematika muammolari», «Donishmandlik tarozusi», «Malikshohning falakiyot jadvali», «Borliq va burch haqida qaydlar».

Umar Xayyomning falsafiy asarlari: «Borliq va majburiyat haqida risola», «Uch savolga javob», «Umumiy fanning predmeti haqida aqlning nuri», «Mavjudlikning umumiyligi to'g'risida risola».

Kashfiyotlari: «Algebra va al-muqobala isbotlari haqida risola» nomli asarida sonlardan butun musbat ildiz topishning umumiy qoidasini birinchi bo'lib ko'rsatdi; 1079-yilda Quyosh taqvimini isloh qilib, yangi taqvimni taklif etgan. Bu kashfiyot Yevropada undan besh yuz yil keyin qabul qilingan va hozirgi kungacha amalda bo'lgan Grigoriy taqvimidan aniq va mukammal edi.

Uni mashhur qilgan asari. Ruboiylaridir. Umar Xayyom o'zining falsafiy ruboiylarida olam sir-asrirlari va muammolarini oxirigacha bilib bo'lmasligini, hozirgi bilimimiz borliq sirlarini yechishga hali qodir emasligini, shuning uchun ham inson hayotida baloyi nafs va bo'lmag'ur hoyu havaslarni jilovlab, ruhiy xotirjamlikka erishish va mas'ud yashash yo'llarini tavsiya etgan. Uning hassoslik bilan yozgan ruboiysi, akademik Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek aytganidek, bir dostonga tengdir. Umar Xayyom she'rlarini fors tilida, nasriy asarlarini arab tilida bitgan. Uning taxminan 400 ta ruboiysi mavjud bo'lib, shulardan 293 tasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanmoqda.

Umar Xayyomning tarbiyaviy-axloqiy qarashlari va ma'naviy falsafiy g'oyalari:

1. Inson xulq-atvoridagi fazilatlar asta-sekin hosil bo'ladi va shakllanib boradi.

2. Xulq-atvor ikki yo'l bilan: odat qilib olish yordamida va fikrlash jarayonida yuzaga keladi.

3. Tarbiyaning maqsadi sog'lom fikr, ziyarak aql va o'tkir zehnga ega bo'lgan insonni shakllantirishdan iborat bo'lmog'i kerak.

4. Inson qalbi kamolotga yetib, farog'at hosil qilishi uchun u yuksak axloqqa ega bo'lishi va yaqinlarini sevishi lozim.

5. Inson barkamolligi — ilmlarni, zakovatni egallab, barcha xatti-harakatini odamlarga yaxshilik qilishga qaratishi, ezgulikka qat'iyon bel bog'lab kirishishidir.

Mutafakkir shoir dunyoning tuzilishi, unda insonning o'rni haqida mulohaza yuritar ekan, avvalo, inson dunyoda eng oliy mavjudot ekanligini ta'kidlaydi:

*Dunyoning tilagi, samari ham biz,
Aql ko'zin qorasi, javhari ham biz.
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,
Shaksiz uning ko'zi — gavhari ham biz.*

To'rtgina misra she'rga zabardast falsafiy fikrlarni sig'dira olishiga qaramay shoiring uslubi — dohiyona sodda o'xshatishlari nihoyatda tabiiy, hammaga osongina yetib boradigan uslub. Uning ohangdor she'rlari fors-tojik adabiyotining boy xazinasidagi nodir durdonalardandir.

Umar Xayyom kuylagan sof muhabbat, sevikli yor qo'lidan tutilgan billur qadah qanday shirin bo'lsa, shoirning ruboiylari ham shunday laziz va rohatbaxsh. Uning asarlaridagi nozik bayon, ayniqsa, mantiq va fikr qudrati allaqachonlardan beri kishilar qalbini maftun etgan. Mohir so'z ustasi asarlaridagi har bir obraz, har bir badiiy vosita o'z oldiga qo'ygan falsafiy fikrni to'laroq va har tomonlama ochib berishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Umar Xayyom o'zining hayotga bo'lgan munosabati bilan, dunyoni idrok etish, uning mohiyatini anglab yetish borasidagi falsafiy fikrlari va ruboiylarida ilgari surgan g'oyalari, shuningdek, barkamol inson haqidagi qarashlari bilan Sharq pedagogikasi tarixida o'ziga xos o'chmas iz qoldirgan.





AHMAD YASSAVIY



(XI asrning 2-yarmi — 1166)

Turkiy tasavvuf she'riyatining atoqli vakili Ahmad Yassaviy taxminan 1041-yili Sayramda Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelib, ilmiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, 1166—1167-yillarda vafot etgan. U yetti yoshida otadan yetim qolgan. Ilk tahsilni Yassida mashhur turk mashoyixi Arslonbob bobodan olgan. Arslonbob bobo vafotidan so'ng u tahsilni

Buxoroda Yusuf Hamadoniy qo'lida davom ettirgan. Yassaviy xalq boshiga ko'p qiyinchilik va musibatlar yog'dirilgan davrda yashab, ijod qildi. U turk hukmdorlari — Qoraxoniylar bilan Qoraxitoylar o'rtasidagi urushlar va ularning dahshatli oqibatlarini ko'rgan, she'rlarida bu fojialarga munosabatini bildirgan.

Uni mashhur qilgan asari: «Devoni hikmat» bo'lib, u turkiy adabiyotning noyob yodgorligidan biridir. Asar «Devoni hikmat» yoki «Hikmatlar» nomi bilan mashhur bo'lib, muallifning islom dini, kalom falsafasi va tasavvufnigina emas, balki o'sha davr ijtimoiy tartiblari, dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar hayotini ham juda yaxshi bilganidan dalolat beradi.

Ahmad Yassaviy ijodiyotining mag'zini isyonkorona mistik mazmunlar tashkil etadi. U behuda «G'arqob bo'lib isyon ichra qoldim mano», demagan: Uning isyoni — Inson botinidagi isyondir.

Yassaviy Buxoroda Yusuf Hamadoniydan suluk odoblarini o'rganib, so'ng Turkistonga qaytadi va o'z tariqatiga asos soladi. U so'fiylik g'oyalari, o'z tariqatini targ'ib etishda she'rlaridan foydalanadi. Islom dini aqidalarini va o'z g'oyalari hikmatlarida ifoda etadi va shu bilan keng omma orasiga kirib boradi.

Yassaviyning falsafiy, axloqiy va diniy g'oyalari:

1. Nodonlik tufayli hayotda savodsizlik, diyonatsizlik, ota-ona va ustozlarga hurmatsizlik, ma'naviy qashshoqlik, yovuzlik, takabburlik rivoj topadi, nodon inson eng tuban shaxs bo'ladi, nodonlik, razolat hukm surgan joyda, ma'rifat bo'lmagan o'lkada mamlakat inqirozga yuz tutadi.

2. Nafs lazzatlaridan voz kechmoq lozim. Chunki nafs ochko'zlik, o'g'rilik, jaholat, xudbinlikni keltirib chiqaradi.

3. Qur'on g'oyalari va Payg'ambarimiz hadislaridagi ta'limotlarga rioya qilish, ya'ni muruvvat, saxovat, qanoat, rostlikni pasha qilish va faqat Allohga tobe bo'lish, Haqni sevish.

4. U «Shariatda orif-billoh bo'lishni, tariqatda vofiq-asror bo'lishni, haqiqatda komil va mukammal bo'lishni, ma'rifatda daryoyi ummon bo'lishni» talab qiladi.

5. Tavba-tazarru — tozalanish demak. Lekin gunohkorlik — faqat ayb va aybdorligingga iqrorlik deganigina emas, asosiy mohiyatni bilish, Haqiqatning muqaddas eshigiga kalit solish hamdir.

6. Ahmad Yassaviyning «Mavtu qabla anta mavti» («O'lmasdan burun o'ling») degan asosiy fikri, bu — kishi butun dunyodan, o'zligidan, hayotning ne'matlaridan voz kechishi, ya'ni fano bo'lish — o'zlikdan kechib, Xudo bilan birikish, degan ma'noni anglatadi.


Yassaviy bir satrida: «Tufroq bo'lg'il, olam seni bosib o'tsin» deydi. Tufroq — buyuklik zamini, xokisorlik poyasi, kibr, manmanlikdan poklanish.

Yassaviy hikmatlaridagi ko'pgina poetik obrazlarning ma'no tarkiblari murakkab. U o'quvchini o'ylashga, tafakkur etib tahlil va tadqiq qilishga undaydi.

Yassaviy madaniyatimiz tarixida ilk turkiyzabon mutasavvif shoir sifatida ma'lumdir. Uning tasavvufni targ'ib etuvchi turkiyda yozilgan she'rlarining tili xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan tezda mashhur bo'lib ketdi.

XII asrdagi turkiyzabon she'riyatning ajoyib namunasi bo'lgan, keyingi davrlardagi turkiy adabiyotlarga katta ta'sir ko'rsatgan «Hikmat» asarida «Yassaviya» ta'limotidagi poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida Insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifodasini topgan.





MAHMUD KOSHG'ARIY

(XI asrda yashagan)

Xalqimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid xislatlari XI asrda yashab ijod etgan ulug' olim, mutafakkir Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit-turk» asarida keng bayon etilgan.

Mahmud Koshg'ariy bu kitobni 1076 — 1077-yillarda yozgan. Uning bizgacha yetib kelgan yagona nusxasi 1226-yilda xattot Muhammad ibn Abu Bakir ibn Abdul Fotih al-Saviy al-Damashqiy tomonidan ko'chirilgan. Hozir ushbu qo'lyozma Istanbulda Fotih kutubxonasiining Ali Amiriy fondida saqlanadi.

Uni mashhur qilgan asari: «Devonu lug'otit-turk».

«Devonu lug'otit-turk»ning tarjimalari. Bu asar 1928-yilda nemis olimi Brokelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan. 1939-yilda Bosim Atalay uni Usmonli turk tiliga tarjima qiladi. O'zbekistonda S. Mutallibov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1960 — 1963-yillarda «Turkiy so'zlar lug'ati» nomi bilan uch jild qilib bosmadan chiqdi. Olim va adib Fitrat ham «Devon»dagi she'riy parchalarni yig'ib tarjima qilgan, ularning lug'atini tuzgan va 1930-yilda Samarqandda nashr ettirgan.

Mazkur asar yuzasidan tadqiqot olib borgan olimlar: «Devonu lug'otit-turk» asari bo'yicha nemis olimi F.Xommel, turk olimi Fuod Kuprilizoda, rus turkshunos olimlari V.Radlov, S.F. Malovlar tadqiqotlar olib borganlar. O'zbek olimlari N. Mallayev «O'zbek adabiyoti tarixi» darsligiga «Devon»dagi qo'shiq va maqolalarni kiritib, ularni tahlil etadi. Aziz Qayumov esa bu qadimgi noyob yodgorlikdagi qo'shiqlarni, she'riy parchalarni nasrdan nazmga o'girib, «Qadimiyat obidalari» kitobida nashr etdi.

Allomaning ta'lim-tarbiya, inson kamoloti, ma'rifat va ezgulik haqidagi qarashlari:

1. Ilm olishni qadrlash, bilimli, donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik va jasurlikka intilish lozim.

2. O'z manfaatini ko'zlagan, molparast, baxil, ochko'z, do'stiga va xalqiga xiyonat qiluvchilardan saqlanish kerak.

3. Bilimli bo'lish bilan birga noxush illatlardan saqlanish zarur, manmanlik, maqtanchoqlik zararli oqibatlariga olib keladi.

4. Aqlli odamning zehni o'tkir bo'ladi. U har qanday o'gitanasihatni xuddi yuqoridan parvoz etayotgan qushning pastda ovni ko'rgach, tezlik bilan pastga sho'ng'ishiga o'xshaydi. Oqil odam zehning tezligini qush parvozig qiyoslaydi.

5. Inson ilm-donish uchun yugurib-yelgandagina uning to'liq egasi bo'lishi, ilm-hunarni egallashi mumkin.

6. Do'stga sodiqlik, manmanlikdan saqlanish kerak.

7. Mehmonni kutib olish, unga g'amxo'rlik qilish, ochiq yuz bilan muomalada bo'lish eng zaruriy odatdir.

8. Mol-mulkka hirs qo'ymaslik, inson mol-mulki ko'payganda ham mag'rurlanib ketmaslik va keksa avlod o'gitariga rioya qilish kerak.

Xulosa qilib aytganda, eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklarda insonda eng qadrlanadigan xislat, jasurlik, mardlik, adolat, sadoqat, insoniylik, xushxulqlik bo'lgan. Bu xislatlar o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyatdagi o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik, qabilachilik turmush tarzi buni taqozo etgan. Ikki katta kuch — yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insondagi bu xislatlarning bevosita shakllanishiga turtki bo'lgan.



YUSUF XOS HOJIB

(XI asr)



Yusuf Xos Hojib turk dunyosidagi milliy uygʻonish davrining eng yirik mutafakkirlaridan biri. U 1019-yilda Quz urdu (yaʼni Bolasogʻun)da dunyoga kelgan. Yusuf Xos Hojibning Sharq ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-taʼlimiy hamda badiiy taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi beqiyos. Undan bizga yetib kelgan

yagona asari «Qutadgʻu bilig» (Saodatga eltuvchi bilim) boʻlib, shoir qoraxoniylar hukmdori Tovgʻach Bugʻroxon huzuriga kelib, mazkur asarni unga taqdim etadi. Bu asar tezda unga katta shuhrat keltiradi. Yusuf Xos Hojib faylasuf va qomusiy olim sifatida oʻz asarida tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiiyot, geografiya, handasa, falsafa, adabiyot, taʼlim-tarbiya, tarix va fiqh sohasidagi fikrlarini asosli qilib bayon etgan. Chunonchi, u barcha ijtimoiy tabaqalar oʻrtasidagi muomala, munosabatlarni yoritish bilan diplomatiyaga oid qoidalar tizimini yaratdi, turli kasb egalarining kasb-korlariga oid talablar va jamiyatning axloqiy tamoyillarini tarannum etish bilan birga, taʼlim-tarbiya sohasida oʻziga xos uslubni yaratdi.

Uni mashhur qilgan asari: «Qutadgʻu bilig». «Qutadgʻu bilig»dagi **bosh gʻoya** — insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari ramziy qahramonlar: Kuntugʻdi — Elig podsho, adolat timsoli, Oytoʻldi — vazir, davlat va baxt timsoli, Oʻgdulmish — vazirning oʻgʻli, aql timsoli, Oʻzgʻurmish — vazirning qarindoshi, qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarish jarayonlaridagi xatti-harakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezonlari sanaladi.

«Qutadgʻu bilig»da talqin qilingan insoniy fazilatlar: kamtarlik, rostgoʻylik, til odobi, poklik, sabr-toqat, aql-idroklilik, sevgi va vafo, muruvvat, oʻzgalarga gʻamxoʻrlik va mushfiq boʻlish. Umuman, Yusuf Xos Hojib asarida madh etilgan bu insoniy fazilatlar xususidagi pand-nasihatlar kishilarni, yoshlarni har bir ishda masʼuliyat bilan yondashishga, ilm olishga, aql-zakovat bilan ish koʻrishga daʼvat etadi.

Yusuf Xos Hojibning maʼrifiy qarashlari va maʼnaviy-axloqiy gʻoyalari:

1. Ma'rifatli va bilimdon kishilarni qadrlash lozim, chunki ular mash'al kabi yo'lni yoritib, to'g'ri yo'l ko'rsatadi va yaxshi-yomonni farqlashga o'rgatadi.

2. Dunyoda inson bilim va zakovat tufayli ulug'likka hamda orzu-tilakka yetadi, jamiyatdagi barcha xatolar bilmaslik va johillik oqibatida yuz beradi.

3. Insonga bilim nechog'liq zarur bo'lsa, kasb-hunar egallash ham shunchalik muhim, chunki kasb-hunar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o'lchov birligi.

4. Insonni kamolga yetkazishning eng muhim tomoni uning aqliy, axloqiy va jismoniy kamolotini ta'minlash va shakllantirishdir.

5. Insonda o'quv, idrok va bilim til hamda so'z orqali namoyon bo'ladi, til odobiga e'tibor berish zarur, barcha ezguliklar va yaxshi muomalaning boshi tildan hamda kishi shu til orqali yuz tuban qaytishi ham mumkin:

So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,

Tilinga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin.

6. Oila tarbiyasi bolaning jamiyatda munosib kamol topishini ta'minlaydigan omillardan biri bo'lib, bola tarbiyasini yoshlikdan va milliy asosda boshlash kerak, ota-ona bunga befarq bo'lmasligi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida insonni har tomonlama kamolga yetkazishning barcha masalalari o'zining badiiy ifodasini topgan yirik ta'limiy-axloqiy dostonidir. Olim insonni kamolga yetkazish uchun quyidagilarni nazarda tutadi:


1. Aqliy kamolot — bilim va zakovat, uquvga ega bo'lish.

2. Axloqiy kamolot.

3. Jismoniy kamolot.

Yusuf Xos Hojib insonni kamolga yetkazish yo'l-yo'riqlari, usullari, chora-tadbirlarini yuksak badiiy mahorat bilan yoritib beradi. Bu usul, yo'l-yo'riqlar fuqarodan tortib yurt boshlig'igacha zarur bo'lib, hozirga qadar ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shuning uchun uning asari ilmiy-ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyati bilan beqiyosdir.





BURHONIDDIN AL - MARGʻINONIY

(1123 — 1197)

Buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abu ul-Jalil al-Fargʻoniy ar-Rishtoniy al-Margʻinoniy 1123-yil 23-sentabrda tugʻilgan. U Qurʻoni karim va Hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh — islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega boʻlganligi va bu sohada beqiyos durdonalar

yaratganligi tufayli Burhoniddin va-l-milla al-Margʻinoniy nomlari bilan mashhurdir.

Burhoniddin al-Margʻinoniy dastlabki taʼlimni Margʻilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning oʻsha davrdagi diniy va maʼrifiy markazi boʻlgan Samarqandga koʻchib borgan va umrining oxirigacha oʻsha yerda yashagan. Mavlono Burhoniddin al-Margʻinoniy yoshlik chogʻlaridanoq Qurʻoni karimni yod olib, hadislarni chuqur oʻrgangan. U 1197-yilda Samarqand shahrida vafot etgan.

Uni mashhur qilgan asari: «Hidoya». Asar Samarqand shahrida yozilgan boʻlib, 4 jildidan iborat. «Hidoya» kitobi sunniylik oqimida hanafiya mazhabi boʻyicha eng muhim va mukammal huquqiy manba sifatida 57 ta kitob, 165 bob, 152 fasldan tarkib topgan boʻlib, meros huquqidan tashqari, fiqhning barcha sohalarini qamrab olgan.

Asarlari: Bizgacha yetib kelgan asarlaridan «Bidoyat ul-Mubtadiʼ» («Boshlovchilar uchun dastlabki taʼlim»), «Kifoyat ul-Muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal taʼlim»), «Nashr al-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosiq ul-haj» («Haj marosimlari»), «Majma ul-novozil» («Nozil boʻlgan narsalar toʻplami»), «Kitob ul-faroyiz» («Farzlar kitobi») va boshqalar.

Burhoniddin al-Margʻinoniyning asarlaridagi huquqiy-maʼnaviy gʻoyalar va axloqiy qarashlar:

1. Inson borki, kelajakda oʻz farzandlarining huzur-halovatini, baxt-saodati va kamolotini koʻrishni orzu qiladi, shu orzu bilan yashaydi. Shu yoʻlda kurashadi, mehnat qiladi, kerak boʻlsa jonini ham ayamaydi. Zero, bolalarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, oila qurish, uni tebratishni oʻrgatish har bir ota-onaning jamiyat oldidagi burchi.

2. Oilaning tinchligi, uning rohat-farog'atli turmushi shu oilaning boshida turgan er-xotin o'rtasidagi do'stona munosabatga bog'liq. Er-xotin totuv bo'lib, birining ishi ikkinchisiga ma'qul bo'lsa, birining topganini ikkinchisi ko'paytirishga harakat qilsa, bu oilaga baraka kiradi. Ular uchun dunyo rohat uyi tinch bo'ladi.


3. Xotinning majburiyatlari, albatta, erining uyida yashash, uyini ozoda, toza saqlab, ro'zg'or ishlarini bajarib, bolalarni tarbiyalashdan iborat. Nikoh ahdi tuzilgandan boshlab er-xotinlik munosabatlariga xiyonat qilmasligi, erining ruxsatisiz ommaviy joylarga chiqmasligi kerak.

4. Agar er xotinga nisbatan zo'rlik, qo'pollik qilsa va erlik majburiyatlarini bajarmasa, xotin er bilan yashashni rad qilishi mumkin.

5. Islomiy oilalar musulmonligi va barqarorligi bilan barchaga namuna bo'lmog'i darkor, bu oilada dunyoga kelib, shakllangan shaxs erkin fikrlaydigan, har qanday salbiy g'oyalar ta'siridan, ong-tafakkur asosida atrof-muhitda bo'layotgan voqea-hodisalarni haqqoniy baholaydigan va ularga o'z munosabatini asosli holda bildiradigan ijodkor kishi bo'lishi lozim.

Alloma asarlari mazmunida xalqimizning ma'naviy-axloqiy qadriyat-lari: ota-ona va keksalarga izzat-hurmat, sabr-qanoat, mehnatga o'rganish, halollik bilan rizq-nasiba topish ma'naviy barkamollik ekanligi dalillar bilan ta'kidlanadi.





SHAYX NAJMIDDIN KUBRO



(1145 — 1221)

O‘z davrining zabardast mutafakkiri va yetuk mutasavvif shoiri Ahmad ibn Umar ibn Muhammad al-Xivaqiy al-Xorazmiy 1145-yilda Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga kelgan. Keyin-chalik u shayx Najmiddin Kubro nomi bilan mashhur bo‘ldi. U yoshligidan bilimga chanqoq bo‘lib,

boshlang‘ich va madrasa ta‘limini Xorazmda oladi.

Abdurahmon Jomiy o‘zining «Nafohat ul-uns» asarida yozishicha, Najmiddin yoshlik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo‘ldi. Misrda Ro‘zbehon Vazzon al-Misriy (vafoti 1188-yil) degan olim dargohida ta‘lim oladi. Ro‘zbehon uni o‘z o‘g‘lidek yaxshi ko‘rib, alohida mehr bilan tarbiya qiladi, hatto qizini nikohlab berib, o‘ziga kuyov qilib oladi.

Ammo ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko‘p o‘tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur Hafda ismli donishmanddan islomiy ilmlarni o‘rganadi va Tabrizda Shayx Bobo Faraj, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvif donishmandlardan tasavvufga oid ko‘pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham o‘rganadi. Tabrizda Shayx Ismoil Kasriy unga «Kubro», ya‘ni «Ulug‘» laqabini beradi. Shundan so‘ng o‘z yurti Xorazmga — Gurganjga qaytadi. Najmiddin Kubro «Kubraviya» tariqatiga asos solgan.

Uni mashhur qilgan faoliyatidagi holatlar: «Kubraviya» tariqatiga asos solgan va u tashkil etgan «Zaxobiya» tariqat maktabida ko‘pgina buyuk mutasavvif shoir va voizlar tahsil ko‘rib, mashhur kishi bo‘lib yetishganlar. Shu tariqa u o‘z maktabining dovrug‘i bilan butun Sharqda «Shayxi valitarosh» (Avliyolar tarbiyalab yetishtiruvchi mo‘tabar shayx) va mudarris sifatida shuhrat qozonadi.

Asarlari: Najmiddin Kubroning qalamiga mansub asarlar 8 ta bo‘lib, ulardan Qur‘on sharhiga bag‘ishlangan tafsir «Ayn al-hayot», shogirdlari uchun o‘git-nasihatlardan iborat «Fi al-adab» («Odob qoidalari») risolalari hamda 25 ta ruboiysi bizgacha yetib kelgan. Allomaning ruboiylaridagi asosiy g‘oya komil insonni tarbiyalash, odamni halokatga boshlovchi nafs, xusumat, gumon,

ta'na, nifoq, riyo, fosiqlik kabi yomon fe'l-atvordan xalos bo'lib, faqat yaxshi ishlar qilishga, ruhiy poklikka chorlashdan iboratdir.

Allomaning «Fi al-adab» («Odob qoidalari») risolasidan namunalari:

1. Ko'rdimki, umr va dunyodan ko'ra tez, shoshilib yo'q bo'lib ketadigan oq o'lim va oxiratdan yaqinroq, orzudan ko'ra uzoqroq, xotirjamlikdan ko'ra go'zalroq narsa yo'q. Dunyo-yu oxirat yaxshiligini qanoatda, dunyo-yu oxirat yomonligini esa tamada ko'rdim.

2. Shariat va dinning poydevori sabr va ishonch ekan.

3. Bas, yaratish, buyurish, bilim va qudrat sohibi har qanday nuqsonlardan pokdir.

4. Ko'rdimki, eng noyob ne'mat rostgo'ylik va qahramonlik, eng og'ir og'riq esa yomon va munofiq do'stlar ekan.

5. To'g'riso'zlikdan ko'ra go'zalroq ziynatni ko'rmadim.

6. Vaqtning «essiz», «qaniydi», «koshkiydi»lar bilan o'tkazgan kishining umri eng qisqa umr ekan.

7. Muvaffaqiyatni sa'y-harakatda, muvaffaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni esa sukunatda ko'rdim.

8. Ochko'zni mahrum, dunyoparastni g'amgin ko'rdim. Eng yaxshi savol-javobni kishining o'z nafi bilan hisoblashida, oqilning oxiratga, johilning dunyoga intilishida ko'rdim. Do'zaxning yo'lini havoyi nafsda ko'rdim.

9. Ko'rdimki, insonga keladigan barcha ofatlar tilda ekan. Ko'rdimki, ekmagan o'rmaydi.

10. Shafqat qilmaganga shafqat qilinmaydi.

11. Aldashdan saqlaning. Saqlaning.

12. Ko'rdimki, eng yaxshi do'st ilm ekan... aqlni esa yaxshiliklarga chorlashda ko'rdim...

13. Ko'rdimki, o'zini o'zi tarbiyalay olgan va shahvatlardan tiyila olgan kishi eng kuchli shaxs ekan.

14. Ibodatlarining eng afzali farzlarni ado qilish, odatlarning eng ma'quli va chiroylisi esa gunohlardan, odamlarga ozor berishdan tiyilish ekan.



MUSLIHIDDIN SA'DIY



(1193 – 1292)



Muslihiddin Sa'diy Sheroziy Sharq mumtoz madaniyatining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, Sharq va G'arbda Shayx Sa'diy degan nom bilan ulug'lanadi.

Muslihiddin Sa'diy ko'hna Eronning qadimiy shahri sanalgan Sherozda 1193-yilda tug'ilgan. Uning otasi Sheroz

hokimi Otabek Sa'diyning mulozimlaridan biri bo'lgan. Otasidan erta ajralgan Muslihiddin boshlang'ich ma'lumotni Sherozda, so'ngra Bag'dod shahrida oladi. U madrasani tugatgach, Sharqning eng mashhur, shu bilan birga, ilm-fan va madaniyat o'choqlariga aylangan shaharlari bo'ylab sayohatga chiqadi.

Muslihiddin Sa'diy 1255-yilda sayohatdan Sheroz shahriga qaytib, shahar chekkasida joylashgan Xafif xonaqosida faqirona hayot kechirib, ijod bilan shug'ullanadi. Alloma 1292-yilda vafot etgan.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Guliston», «Bo'ston» va «Havotim» deb nomlanuvchi devonlaridir.

Asarlari: Muslihiddin Sa'diy tomonidan yaratilgan barcha asarlar 19 bo'limdan iborat kulliyotda to'plangan. Bu to'plam uning vafotidan 37 yil o'tgandan so'ng Abubakr Besutun degan kishi tomonidan jamlangan. Kulliyotning tarkibiy tuzilmasidan joy olgan hamda mutafakkir nomini mashhur qilgan uchinchi devon «Havotim» deb nomlanadi.

Muslihiddin Sa'diyning jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan «Guliston» va «Bo'ston» asarlarida allomaning ta'limiy-axloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan. Manbalarda ta'kidlab o'tilishicha, muallif «Bo'ston» ni 1257-yilda, «Guliston»ni esa 1258-yilda yaratgan.

Mutafakkirning insonni tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi asarlari Sharq xalqlarining pedagogik fikrlash tarixida o'ziga xos uslubga ega didaktik asar sifatida tan olingan. Jumladan, «Guliston» asari mazmun-mohiyatiga ko'ra insonni yetuklik, kamolotga yetaklovchi omillar to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritishga xizmat qiladi.

Sa'diyning asarlarida ilgari surilgan ta'limiy-axloqiy qarashlar:

1. Podsholar adolatli bo'lmog'i nihoyatda muhim. Hukmdori ushbu sifatga ega bo'lgan mamlakatda tinchlik, fuqarolar o'rtasida o'zaro ahillik, hamjihatlik tarkib topgan bo'ladi.

2. Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri mol-mulk yig'ib, foydalanmagan, ikkinchisi, ilm olib, unga amal qilmagan odam.

3. Dono va oqillarning nasihatlarini eshitish, ularga og'ishmay amal qilish inson hayotining mo'tadil kechishi uchun poydevor bo'ladi.

4. Ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda muallim (ustoz)ning talabchan va qattiqqo'l bo'lishi joizdir. Chunki ta'lim jarayonining uzluksiz va izchil kechishi, ma'lum talablarga og'ishmay amal qilishi va doimo muallim nazorati ostida bo'lishi bu mashaqqatli jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

5. O'z mehnatidan non yegan kishi, Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

6. Hunar qaynar buloq, tuganmas davlat. Agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa, qayg'usi yo'qdir. Chunki hunarmandning o'zi davlatdir.

7. Insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, o'zgalardan yordamini ayamagan, boshiga kulfat tushgan kishilarga yordamga oshiqqan, eng og'ir damlarda do'st yonida bo'la olgan, unga nisbatan g'animlik qilgan kimsalarga nisbatan ham muruvvat ko'rsata olgan kishilar komil insondir.

8. Barcha hiylalari barbod bo'lgan dushman o'zini do'st qilib ko'rsatishga urinadi, do'st bo'lib olgach, shunday ishlar qiladiki, buni hech qanday dushman ham qila olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Muslihiddin Sa'diy asarlarida inson kamolotining asosiy omillari sanalgan ilmning aqliy tarbiyadagi o'rni, insonparvarlik, kasb-hunar egallashning o'ziga xosligi, mehnatni sevish, yuksak axloqiy xislatlarni targ'ib etish, o'z ta'limiy-axloqiy qarashlarini amaliyotga tadbiiq etish kabilarga katta e'tibor bergan. Uning ta'lim-tarbiyada hozir ham o'z qimmatini yo'qotmagan pandlari jahon pedagogik fikr taraqqiyotida, yosh avlodni barkamol va ma'rifatli qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.





JALOLIDDIN RUMIY



(1207 — 1273)

Jaloliddin Rumi yoki Mavlono Rumi nomi bilan mashhur bo'lgan zot dunyoning ulug' donishmandlaridan biri, benazir shoir va mutafakkir, valiy insondir. Uni ko'p alloma faylasuflar bilan qiyoslaydilar, ammo Mavlono Rumi hech kimga o'xshamaydi. U muazzam Sharq tafakkurining mo'jizali bir haykalidurkim, unda tasavvuf taraqqiyoti ham, ilmu hikmat va falsafa ham, she'riyat va ma'naviyat ham birlashib, oliy ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Jaloliddin Rumi hozirgi Afg'onistonning Balx shahrida «Sultonul ulamo» laqabini olgan ulug' shayx Muhammad Bahouddin Valad xonadonida 1207-yilda dunyoga kelgan. Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad Najmiddin Kubroning shogirdi bo'lib, shu maktabda shayx darajasini olgan. Keyinchalik Bahouddin Valad Muhammad Xorazmshoh bilan kelisholmay, oilasi va muridlarini olib, Balxdan chiqib ketadi va Makka safaridan so'ng, Iroq-u Ajam shaharlarini kezib, oxiri Turkiyaning Ko'nya shahrida qo'nim topadi.

Yosh Jaloliddin Shom, Halab, Damashq, Qaysariya va boshqa ilm markazlarida yetti yil ta'lim oladi, davrning yetuk va zabardast olimi bo'lib yetishadi. U «Mavlono Rum» nomi bilan nafaqat Rum elida, balki butun arab va ajamda mashhur bo'ladi.

Buzurgvor ustoz va samimiy do'sti Shams Tabriziydan judolik azoblari, jo'shqin va qaynoq hayotining g'amli va iztirobli damlari, betinim va murakkab ijod jarayoni Mavlono Rumi umriga asta-sekin xotima yasaydi. 1273-yilning izg'irinli qish kunlarida bu mo'tabar zot Ko'nyada olamdan ko'z yumadi.

Uni mashhur qilgan asari va faoliyatidagi holati: «Masnaviy ma'naviy» nomli asarini fors tilidagi Qur'on deb tavsif etganlar. Faoliyatidagi mashhurlik esa uning «Mavlaviya» tariqatiga asoslanganligidadir.

Asarlari: Mavlono Rumi o'zidan keyingi avlodlarga beshta muhim va qimmatbaho asar yozib qoldirdi.

1. Devoni Rumi. Bu asar ruboiy va g'azallardan iborat bo'lib, «Devoni kabir», «Devoni Shams Tabriziy» nomlari bilan ham ataladi.

2. «Masnaviy ma'naviy» 25700 baytdan iborat qimmatbaho asardir.
3. «Fiyhi mo-fiyhi» («Ichindagi ichindadir»).
4. «Mavoizi majolisi sab'a». Bu asar Rumiyning yetti o'git va pand-nasihatidan iborat.

5. «Maktubot». Bu asar yozishmalar janrida yozilgan.

Mavlono Rumiyning diniy-falsafiy va axloqiy-ma'naviy g'oyalari:

1. Mavlono Rumiyning odamni tadqiq etadi. Uning tabiati va intilishlarini kuzatadi. Botiniy jilolar va surilishlar, qalb siljishlarini qidirib topadi. Insonning imon gavhari, buyukligi barobarida, nuqsonlari, nafsi, hirs oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, bulardan qutulish, poklanish yo'llari, fazilatini bayon etadi.

2. So'z haqiqatning soyasi va parchasidir. Modomiki, soya o'ziga tortar ekan, u holda haqiqat yanada yaxshiroq jazb etadi. So'z bahonadir. Bir insonni boshqa bir insonga tortgan emas, balki ikkisida mavjud bo'lgan ruhiy birlikdan bir parchadir.

3. «Sen tanani boqding, ammo unda farqlash xossasi yo'qdir. Farq etish bir sifat. Axir ko'rmayapsanmi, jinning qo'l-oyog'i bor, faqat farqlash xususiyati yo'q. Farqlash sendagi latif bir ma'nodir va sen kecha-yu kunduz undan mahrum bo'lgan narsani boqishga harakat etmoqdasan. Uning bu bilan shirin ekanligini bahona qilmoqdasan, holbuki, bu ham u bilan tirikdir. Bu qanday ishki, sen farqlashdan tamoman mahrum bo'lganni boqding, voyaga yetkazding va vaqtini vujudingni yedirib-ichirish bilan o'tkazding-da, u latif ma'noga, ya'ni farq etish qudratiga parvosiz bo'lding».

4. «Sen o'zingni yuksak ishlarga berayapman, fiqh, hikmat, falakiyot, tib va boshqa ishlarni o'rgatayapman, deya bahonalar ko'rsatasan. Aslida, bularning barchasi o'zing uchundir. Fiqh qo'lingdagi nonni birov tortib olmasligi, seni o'ldirmasligi, ustingdagi kiyimingni yechib olmasligi va sog'-salomat bo'lishing uchundir. Falakiyot sohasidagi biliming esa falak ahvolidan xabardor bo'lish va shunga qarab ish tutishing uchundir. O'ylab ko'rsang Asli sen bo'lib, bular sening oydinligingdir, nuri ziyoyingdir».

Bir so'z bilan aytganda Jaloliddin Rumiyning g'oyalarida ishq — ozodlik bo'lib, rindlarning xatti-harakati, ruju' va kayfiyatida inson ruhining erkin parvozi aks etgandir. Buni inkor qilib bo'lmaydi va sufiyona adabiyotda, xususan, Mavlono Rumiyning g'azaliyotida bu tuyg'u ifodalangan.





BAHOUDDIN NAQSHBAND

(1318 — 1389)

Muhammad ibn Muhammad Fazl Buxoriy Bahouddin Naqshband 1318-yilda Buxoro shahri yaqinidagi Qasri Hinduvon (keyinchalik Qasri Orifon) qishlog'ida tug'ilgan. Naqshband uning laqabi bo'lib, ota kasbi kimxobboflik, o'zi esa matolarga gul bosganligi bois berilgan, deb taxmin qilinadi.

Yoshligidan tasavvuf ilmiga qiziqish paydo bo'lib, shu yo'lda tarbiya topgan Naqshband tariqat sulukiga oid ilk saboqlarni Boboyi Samosiy, Sayid Amir Kuloldan oladi. Ammo Xoja Bahouddin Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyni o'ziga ustoz bilib, uning yo'lini qabul qiladi.

Muhammad Fazl Buxoriy (Naqshband) ikki marta haj safariga boradi. Haj safaridan Buxoroga qaytgach, butun umrini shu yerda o'tkazadi. Amir Kulolning vasiyatiga ko'ra, uning xalifasi bo'lib qoladi. Bahouddin Naqshband 1389-yilda vafot etib, Qasri Orifon qishlog'ida dafn etilgan.

Uni mashhur qilgan faoliyatidagi holati: Naqshbandiya (Xojagon) tariqati. Naqshband ta'limotining xalqlar o'rtasida keng tarqalishiga asosiy sabab: Naqshbandiya tariqati halol mehnat qilish orqali kun kechirish g'oyasini targ'ib etadi. Bahouddin Naqshband tomonidan ilgari surilgan «Dil-ba yor-u, dast-ba kor» (Diling Alloh zikri bilan, qo'ling ish bilan band bo'lsin) shiori unga asosdir. Tariqatning yana bir farqi shundaki, uning tarafdorlari «Zikri xufiya»ni amalga oshirganlar, ya'ni ular tomonidan Allohga qilinayotgan toat-ibodat ovoz chiqarilmasdan bajariladi. Mutafakkirlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy ham shu suluk vakillari bo'lishgan.

Asarlari: Alloma va'z va pand nasihatlarini o'z ichiga olgan «Hayotnoma» nomli she'riy to'plam va tasavvufga oid «Dalil al-oshiqin» nomli kitob yozgan. Biroq mazkur asarlari bugungi kunga qadar topilgan emas.

Naqshbandiya (Xojagon) tariqatining axloqiy qoidalari: bu qoidalar jami 11 ta bo'lib, ular quyidagilardir: xush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan va xilvat dar anjumandan iborat to'rtta aqidaga Yusuf Hamadoniy tomonidan tartib berilgan. Yodkard, bozgasht,

nigohdosht, yoddosht aqidalari Abduholiq G'ijduvoni tomonidan qo'shiladi. Vuqufi zamoni, vuqufi adadiy, vuqufi qalbiy talablari esa Xoja Bahouddin Naqshband tomonidan qo'shiladi.

Naqshbandiya tariqatining odob-axloq va ruhiy poklanishga oid ma'naviy g'oyalari:

1. Inson barkamol bo'lishi uchun, avvalo, imoni va e'tiqodi mustahkam bo'lishi kerak.

2. Musulmonlik iloji boricha hukmlarga bo'ysunish, taqvoga rioya qilish, amalni bajarishga intilish va bekorlikdan uzoq bo'lib, bularning hammasi nuri safo va rahmat hamda valoyat darajasiga yetishish vositasidir.

3. Adab — xulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Xizmat odo bi ulug' baxtdan yaxshiroq, uning belgisi amalning qabuli, tug'yon esa amalning buzuqligidir. Adabni saqlash, muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urug'i hamdir.

4. Naqshbandiya tariqati asosida poklik, halol mehnat bilan kun kechirish, sabr-qanoatli, kamtar, samimiy bo'lish, imon va e'tiqodni mustahkam tutish, dilda Xudoni yod etib, amalda xalq bilan birga bo'lish kabi oliyjanob xislatlarni tarkib toptirish yotadi.

5. Mazkur tariqat kishilarni mehr-oqibat, samimiylik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik, sabr-qanoat sari yo'llar ekan, ularda yomon illatlar: harom ishlar, ya'ni o'g'rilik, nopoklik, xasislik, yolg'onchilik, firibgarlik, tamagirlik, boylikka hirs qo'yish kabilarni qoralaydi.

Demak, Naqshbandiya tariqatining asosini insonning ham ruhan, ham jismonan poklanishi tashkil etib, bu jarayon hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Yosh avlodni yetuk inson, barkamol shaxs qilib tarbiyalashda, uning axloqiy tizim yo'llari va usullaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zero, aqliy, axloqiy, jismoniy kamol topgan shaxsni shakllantirishning ham ruhiy, ham ma'naviy tarbiya silsilasi buning yaqqol dalilidir.



SOHIBQIRON AMIR TEMUR

(1336 — 1405)



Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay 1336-yilning 9-aprelida Kesh (Shahrisabz)ga qarashli Xo'jailg'or qishlog'ida tavallud topgan, 1405-yilda O'trorda vafot etgan, jasi Samarqandga keltirilib dafn etilgan.

O'zbek qomusiy olimi Ibrohim Mo'minovning ta'kidlashicha, sohibqiron Amir Temur ilm-fan, adabiyot va san'at fidoyilarini qadrlar, xususan, riyoziyot, handasa, me'morlik, geografiya, adabiyot, tarix, tibbiyot, musiqa, geologiya va din sohasidagi sohibi hunarlar bilan suhbatlashishni, bahslashishni, ulardan fikr-maslahat so'rashni o'zi uchun farz deb bilgan.

Zamondosh tarixchilarning e'tirof etishicha sohibqiron Temurning eng xarakterli xususiyatlari — davlat, mamlakat va fuqarolar haqida g'amxo'rlik qilish bo'lgan. Jahongirlik qoidasi esa haqiqat — sihat-salomatlik, haqiqat — tartib, haqiqat — adolat deb tushunilgan.

Uning davlatdorlikdagi shiori: «Kuch — adolatdadir», «Rosti — rusti» («To'g'ri bo'lsang — qutulasan»).

Uni mashhur qilgan asarlari: «Tuzuki Temuriy» («Temur tuzuklari»), «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari») va «Voqioti Temuriy» («Temurning boshdan kechirganlari»).

Amir Temur odob-axloq, imon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya sohasida yuksaklikka va mukammallikka erishgan siymolardan biridir.

Amir Temurdagi sifatlar:

1. Beg'arazlik va hammaga bir xil jiddiy va odil qarash.
2. Islom aqidalari va ta'limotiga qat'iy amal qilish.
3. Kambag'allarga ko'p xayr-ehson qilish.
4. Xaloyiqqa rahm qilish, birovga nohaq ozor yetkazmaslik va yordam so'rab kelganga yordam berish.
5. Kundalik va dunyoviy ishlarga reja asosida, islomiy talablarni bajargandan keyin kirishish.
6. Haqiqatgo'ylikka amal qilish, haqiqatni yolg'ondan ajratishga erishish.
7. Va'daga vafo qilish.
8. O'zini Allohning yerdagi mulkining posboni deb bilish.
9. Har doim Allohning farzi va payg'ambarning sunnatiga amal qilish.
10. Insof va imonni buyuklikning qudratli zamini deb bilish.
11. Ilmli kishilarni, sayyidlar va shayxlarni e'zozlash.

Sohibqiron Amir Temurning ibratli, hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'g'itlarining har biri mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ularni hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o'g'itlar Sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish: goh muvaffaqiyatli, goh muvaffaqiyatsiz, goh quvonchli, goho sertashvish umrining ijodiy mevasidir. Bu o'g'itlar xalqlarni bir maqsad sari birlashtirgan, sehrli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona — ma'rifatdir. Bu ma'rifat buyuk Sohibqironning davlatni boshqarish va uni idora qilish, g'olibona harbiy yurishlar qilish, mamlakatda osoyishtalik o'rnatish, fan va madaniyatni rivojlantirish, xalqlar o'rtasida buzilmas do'stlik, mehr-shafqat, odamiylik va odob-axloqni tarbiyalash kabi muammolarni hal qilishga bag'ishlangandir.

«**Amir Temur o'g'itlari**» risolasida haqqoniy ta'kidlanganidek, Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlari benihoya katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarning mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishiga yordam berdi. Bir so'z bilan aytganda, Amir Temur Yevropa madaniyati va ma'naviyatini ikki marta talon-toroj bo'lishdan saqlab qoldi.

Amir Temurning Osiyo, umuman, jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o'rni haqida xulosa qilib, quyidagilarni takidlash joizdir:

— Amir Temur O'rta Osiyoni mo'g'ullar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni birlashtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yo'naltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqlarning bu sohadagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga ulkan hissa qo'shgan sarkardadir;

— Amir Temur ko'p yillar davomida mustamlaka bo'lib, chet ellik hukmdorlarga bo'ysunib kelgan Movarounnahr va Xurosonda o'z yurti, xalqining kuch-qudratiga tayangan mustaqil va yagona davlat barpo eta oldi;

— Amir Temur ham o'z davriga xos bo'lgan turli sabablarga binoan boshqa mamlakatlarga yurishlar qildi va Yevropa mamlakatlari rivojlanishining tezlashishiga o'z hissasini qo'shdi. Rossiyani Oltin O'rda zulmidan va Yevropa mamlakatlarini Turkiya tajovuzidan saqlab qoldi;

— Amir Temur o'z siyosatida madaniyat, obodonchilik, hunarmandchilik homiysi bo'lib tanildi.





MIRZO ULUG'BEK



(1394 — 1449)

Muhammad Tarag'ay — Ulug'bek

1394-yilning 22-martida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida tavallud topgan. U 1449-yilning 27-oktabrida, 56 yoshida fojiali halok bo'lgan.

Shohrux Mirzoning Muhammad Tarag'ay ismi berilgan to'ng'ich o'g'lini bobosi Amir Temur alohida mehr bilan «Ulug'bek» deb atayvergani uchun ham uning asosiy ismi Ulug'bek bo'lib qoladi va jahonga ana shu nom bilan shuhrat taratadi.

Ustozi — bobosining xos munajjimi mavlono Badriddin Tusiy bo'lib, uning yordamida Oqsulotda al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Nasriddin Tusiy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom kitoblari bilan, O'trorda esa «Ziji Malikshohi» asari bilan tanishdi. Lekin Ulug'bekning o'zi faqat Qozizoda Rumiyni ustozim deb ataydi.

Fanga bo'lgan zo'r muhabbati, katta qobiliyati, mehnatsevarligi tufayligina Ulug'bek astronomiya maktabining asoschisi va rahbari sifatida ajoyib muvaffaqiyatlarga erisha oldi. Bu maktab butun dunyoda hamma tomonidan e'tirof etilgan va «Samarqand akademiyasi» nomi bilan shuhratga sazovor bo'lgan.

Uni mashhur qilgan asari: «Ziji jadidi Ko'ragoniy».

Kashfiyotlari: Turli vaqt o'lchash asboblari yasagan, 1018 ta yulduzning holati va harakatini aniqlagan, geografik yo'nalish asosida Quyosh balandligini aniqlash qoidalarini tuzgan.

Asarlari: «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», «Risolai Ulug'bek», «Tarixi arba' ulus».

Ulug'bekning fan, madaniyat va ma'rifat taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlari:

1. Ulug'bek 15 yoshida Movarounnahr hukmdori bo'lgan va 40 yillik hukmronligi davomida o'lkada ilm-fan, adabiyot, san'at va ma'rifatning yuksalishi hamda taraqqiyotiga beqiyos katta hissa qo'shgan.

2. Ulug'bekning eng katta xizmati shundaki, u bevosita ilmiy-pedagogik qarashlari bilan ham odamlarni ilmi va ma'rifatli bo'lishga da'vat etgan. U falsafa, tarix, falakiyot, matematika, geografiya,

adabiyot fanlariga oid ko'p jildli asarlarida o'z davri uchun muhim bo'lgan ilg'or pedagogik fikrlarni ilgari surgan.

3. Mirzo Ulug'bek, avvalo, ilmiy farazlar bilan emas, balki sof amaliy uslubda ijod qilgan. Minglab yulduzlarni jamlagan mukammal xaritani, bugungi eng zamonaviy hisoblardan deyarli farq etmaydigan mukammal astronomik jadvalni yaratgan.

4. Madrasalardagi o'quv tizimini isloh qilib, o'qish muddatini 15 — 20 yildan 8 yilgacha qisqartirgan.

Ulug'bekning tarbiyaviy qarashlari:

1. Yosh avlodning erkin va har tomonlama kamol topish huquqini himoya qiladi.

2. Yoshlar o'rgangan bilimlarini hayotga tatbiq etish yo'llarini bilishlari, kerakli kasb-hunarlarni o'rganishlari lozim, deb hisoblaydi.

3. Axloq tarbiyasi masalasiga e'tibor berib, insonlar orasidagi munosabat, do'stlik, birodarlikka alohida e'tibor qaratishni ta'kidlaydi.

4. Mehnat tarbiyasi va insonlarni hayotda, o'qishda chidamli bo'lishni mehnatsevarlik va matonat timsoli deb ko'rsatadi.

5. Bolalarning jismonan sog'lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo'lib yetishuviga alohida e'tibor beradi.

Ulug'bek Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa barpo etgan. Mirzo Ulug'bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining hukmdori bo'lib, xalqlarning azaliy orzusi — tinchlik, totuvlik, har tomonlama taraqqiyotni qaror toptirish yo'lida mislsiz shijoat va matonat ko'rsatgan.

Uning hayoti va ijodi o'zbek xalqi ma'naviyati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlaridan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental fanga nechog'liq buyuk ahamiyat berganini ko'rsatadi.



ABDURAHMON JOMIY

(1414 — 1492)



Nuriddin Abdurahmon ibn Ahmad Jomiy 1414-yil 7-noyabrda Jom shahrida tavallud topib, 1492-yil 8-noyabrda 78 yoshida Hirotida vafot etgan. Jomiy taxallusi u tugʻilgan shahar «Jom» nomidan olingan. Jomiy maktabga juda erta qatnay boshlagan. Oilaviy tarbiyada uning bilim olishiga katta

eʼtibor qaratilganligi bois kuchli xotira va yuqori isteʼdod sohibi boʻlib yetishadi. U avval Nizomiya madrasasini tugatadi, keyinchalik Samarqandga borib, Ulugʻbek boshchiligida matematika, fizika, astronomiya fanlarini chuqur oʻrganadi. Jomiy oʻz zamonasining yetuk olimi Qozizoda Rumiy maʼruzalarini tinglaydi.

Jomiy matematika, arab tili va adabiyoti, sintaksis, badiiyot ilmi, musiqa, falakiyot, falsafa, fiqh, notqlik ilmi va boshqa fanlardan chuqur maʼlumot oladi, dunyoqarashi keng inson, shoir va olim sifatida shuhrat qozonadi. Lekin Jomiy oʻta xokisor va kamtar inson edi. 1469-yilda Abdurahmon Jomiy Hirotida Alisher Navoiy bilan uchrashadi va ular oʻrtasida doʻstlik aloqalari paydo boʻlib, bu doʻstlik alloma umrining oxirigacha davom etadi. Alisher Navoiy Jomiyini oʻzining ustozini deb biladi.

Uni mashhur qilgan asarlari: «Haft avrang» («Yetti taxt» tarkibida: «Silsilat ul-zahab», «Tuhfatul ul-asror», «Suhbat ul-asror», «Yusuf va Zulayho», «Salomon va Absol», «Layli va Majnun», «Xiradnomayi Iskandariy») va «Bahoriston».

Asarlari: «Nafohot ul-uns», «Lujjat ul-asror», «Ashiat al-jamoat», «Risolayi musiqiy», «Risolayi muammo».

Tasavvufiy asarlari: «Naqshi fusus» («Maʼnolar naqshi»), «Shavohidi Nabuvva» («Paygʻambarlikka dalillar»), «Naqshbandiya taʼlimoti haqida risola», «Haj qilish yoʻllari haqida risola».

Sheʼriyat nazariyasiga oid asarlari: «Risolayi aruz», «Sharhi bayt», «Masnaviy», «Sharhi ruboiyot», «Risolayi qofiya», «Risolayi muammoyi manzum» va boshqalar.

Musiqaga oid asari: «Risolayi musiq».

Jomiyning insoniy fazilatlarga oid gʻoyalari va axloqiy-tarbiyaviy qarashlari:

1. Har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishi, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo'lib yetishishi tabiiydir.

2. Haqiqiy insonga xos bo'lgan axloqiy xislatlar — yaxshilik, saxiylik, shirinsuxanlik, kamtarlik, sabr-qanoat, do'stlik, rostgo'ylik, mehnat-sevarlik.

3. Haqiqiy do'stlikning belgilari do'stga sodiqlik, qiyin paytlarda undan qochmaslik, hamdard, hammehr bo'lish, do'stlik evaziga biror narsa talab etmaslik.

4. Insoniylik fazilatlarini o'zida mujassam etgan inson kibr-havo, manmanlik, razolat, johillik kabi illatlardan saqlanishni o'ziga odat qiladi.

5. Ilm va hunarni e'zozlagan rahbar o'z elining e'zoziga sazovor bo'ladi, bunday o'lka gullab-yashnashi mumkinligini ta'kidlaydi.

6. Insonning bilim olish bilan birga kasb-hunar egasi bo'lishi uning kamolotining muhim mezonidir.

Abdurahmon Jomiy g'oyat ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashning ikkinchi bir jihati axloqiy barkamollik deb bildi va axloqiylik — yuksak xulq-odob mezonlari sifatida insoniylik, adolat, mehnatsevarlik, saxovat va karam, mehr-muruvvat, chin insoniy muhabbat, rostgo'ylik, kamtarlik, jasorat, mardlik kabi xislatlarni ulug'ladi va takabburlik, mol du, o'ga hirs qo'yish, yolg'onchilik, joxillik bilan bog'liq illatlarni qoraladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, shuni takidlash lozimki Abdurahmon Jomiy asarlarida ilgari surilgan, kishilar egallashi zarur bo'lgan eng yaxshi fazilatlar hozirgi davrda ham har tomonlama yetuk insonni kamolga yetkazishda muhim dastur bo'lib xizmat qila oladi.



ALISHER NAVOIY



(1441 – 1501)



Qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar Alisher Navoiy XV asrda — temuriylar davrida yashab ijod etgan allomadir. Uning nomi va ijodi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Balzak, Pushkin va Tolstoy kabi

ulkan so'z darg'alarining nomi va merosidek o'lmasdir.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan, 1501-yilning 3-yanvarida vafot etgan. U turk va fors tillarida ijod qilgan. Navoiy o'ttizga yaqin she'riy to'plam, yirik-yirik doston va risolalarning muallifidir.

Uni mashhur qilgan asarlari: Besh dostondan iborat «Xamsa» («Hayrat ul-abror», «Farhod va Shirin», «Sab'ayi sayyor», «Layli va Majnun», «Saddi Iskandariy»), «Mahbub ul-qulub», «Xazoyin ul-maoniy».

Asarlari: «Muhokamat ul-lug'atayin», «Devoni Foniyy», «Lison ut-tayr», «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon», «Munshoot», «Nazm ul-Javohir», «Arba'in», «Vaqfiya» va boshqalar.

Bulardan tashqari Navoiy fors tilida ham 12 ming misradan oshiq she'r, muammo janri haqida «Mufradot» risolasini, «Sittayi zarunya», «Fusuli arbaa» turkum qissalarni yozgan va «Foniyy» taxallusi bilan alohida devon tuzgan.

Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari va ma'naviy-ma'rifiy g'oyalari: Alisher Navoiy maktabdor yoki mudarris bo'lib dars bermagan bo'lsa ham, ta'lim va tarbiya ishida juda katta xizmatlari bor. U o'zining «Xamsa», «Mahbub ul-qulub» kabi yirik ta'limiy-axloqiy hamda boshqa asarlarida tarbiyaga oid qarashlarini bayon etadi:

1. Ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalash orqali komil insonning ta'limiy-axloqiy qirralarini shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etadi.

2. Kishilarni ilm-ma'rifatli bo'lishga undash, ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilat deb bilish, ilm insonni, xalqni nodonlik va jaholatdan qutqaruvchi omil ekanligini asoslash.

3. Yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar, mudarrislar hamda ustoz-murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtirish bilan birga, agar shogird podshohlikka erishsa ham ustozga doimo tavozeada bo'lishga undaydi.

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqqin yuz ganj ila.*

4. Sadoqat, qanoat, muruvvat, hilm, karam, sabr, himmat, saxovat va ishq tavozeni haqiqiy insonga xos xislatlar deb bilib, yoshlarni tarbiyalash.


5. Xalqqa ish bilan ham, so'z bilan ham, ko'ngil bilan ham foyda keltiradigan, xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb bilish:

*Odami ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami.*

Alisher Navoiy asarlari jamiki odamzodga mehnat va halollikdan, do'stlik va hamkorlikdan, rostgo'ylik, sofdillik va samimiylikdan muhim hayotiy saboq bermoqda, haromxo'rlik va adolatsizliklarni, o'zaro nizo va qonli to'qnashuvlarni, vayronagarchilikka sabab bo'ladigan urushlarni esa keskin qoralamoqda. Ana shu ma'noda olganda, Alisher Navoiy ta'limoti faqat milliy ahamiyatga ega bo'libgina qolmasdan, umumbashariy qimmatga ham ega.

Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotining so'nggi rivojini belgilabgina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning butun ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Uning asarlari, she'riyati qayta-qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifasini o'tadi adrasalarda keng o'rganildi.





ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483 — 1530)

O'zbek mumtoz adabiyotida alohida o'rin tutgan, temuriylar avlodining so'nggi vakillaridan bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur O'rta Osiyoda fan va madaniyatning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan, o'zining g'oyat samarali faoliyati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan shaxsdir.

Otasi Umar Shayx — Temurning chevarasi, Farg'ona viloyatida hokim, onasi Qutlug' Nigor xonim Toshkent hokimi Yunusxonning qizi bo'lgan. Bobur saroy muhitida tarbiyalandi va o'qidi, yoshligidan ilmga, she'riyatga berildi. Dovyurakligi, jasurligi va ephilligi tufayli uni «Bobur», ya'ni «Yo'lbars» deb atadilar.

Bobur ilm-fan va san'atning, umuman, hayotning hamma sohaları bilan qiziqqan. Jahon sharqshunoslari tomonidan olim sifatida e'tirof etilgan. Bobur fanning ko'pgina sohaları bo'yicha qimmatli ishlarni amalga oshirgan. Yaqin hamda O'rta Sharq xalqlari madaniyati tarixi uchun katta xizmat qilgan. Masalan, geografiya fanlari doktori, professor H. Hasanov uning faqat davlat arbobi emas, balki mashhur lashkarboshi, tarixchi, geograf, biolog, musiqachi va me'mor ham bo'lganligini ta'kidlaydi.

Uni mashhur qilgan asari va faoliyatidagi holatlar: Bobur o'z faoliyati tomonidan adolatli shoh va ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan olim sifatida mashhur bo'lsa, ijodiyot tomonidan adabiy, tarixiy asari «Boburnoma» bilan yaqqol ko'zga tashlanadi. Boburning xotiralaridan tashkil topgan va Temuriylar davlatining tanazzulga yuz tutish davrini o'zida ifodalagan qomusiy xarakterdagi «Boburnoma» kitobi ilmiy-tarixiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, unda tarix, geografiya, botanika va fanning boshqa sohalariga taalluqli qimmatli ma'lumotlar bor.

Asarlari: Iste'dod sohibi bo'lgan Bobur 12 yoshidan, podsho bo'lganidan boshlab, to umrining oxirigacha o'zi ko'rgan voqealarni, yuzlab tarixiy shaxslar hayotini, fan uchun muhim ahamiyatga molik bo'lgan ko'plab dalillarni «Boburnoma»da aks ettiradi. Bundan tashqari, she'rlar devoni, qonunshunoslikka oid «Mubayyin», arab alifbosini

o'zgartirish to'g'risidagi «Xatti Boburiy», aruz vazni va qofiyalari masalalariga doir «Mufassal», shuningdek, musiqa va harbiy san'at haqidagi asarlarni yaratdi.

Uning asarlaridagi axloqiy va estetik g'oyalari hamda ma'naviy-ma'rifiy qarashlari:

1. Kishida hayotga va vatanga muhabbat, ilm-fanga va ma'rifatga intilish inson ma'naviy qiyofasining asosidir.

2. Fan va ma'rifatni yuqori qadrlagan inson adabiyot, san'at va ilm ahli bilan yaqin munosabatda bo'ladi hamda donolar o'gitidan to'g'ri foydalanadi.

3. Har kimdan yaxshi qoida qolg'on bo'lsa, aning birla amal qilmoq kerak. Yomon ot birla tirilgandin, yaxshi ot bilan o'lgan yaxshiroq.

4. Kishining hayotdagi eng asosiy burchi hamma joyda ham o'zini tuta bilishdan va yaxshi xulq-atvorli bo'lishdan iboratdir.

5. Inson do'stlikni, hayotni, uning har bir fursatini qadrlashi, qayg'u-hasrat bilan emas, xulq-atvori bilan yoshlarga ibrat bo'lishi dardkor.

6. Xalqimizning «Ekkaningni o'rasan» degan naqliga amal qilib shoir yozadi:

*Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jaf o qilsa, jaf o topqusidir.
Yaxshi kishi yomonlik ko'rmagay hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.*

7. Mehnat qilgan va mashaqqat chekkan kishilardagina chinakam insoniy fazilatlar tarkib topadi.

Boburning she'rlari asl ijod samarasi sifatida ko'p avlodlarga manzur bo'lib kelgan, ota-bobolarimiz serqirra faoliyatidagi ijobiy jihatlari uchun Boburni e'zozlaganlar, biz ham uni va uning ma'naviy merosini, xususan, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga molik bo'lgan axloqiy, ma'rifiy va pedagogik g'oyalarni qadrlaymiz.





BOBORAHIM MASHRAB



(1640 — 1711)

Boborahim Mashrab O'rta Osiyo, Afg'oniston va Shimoliy Turkistonda mashhur, buyuk mutasavvif shoir, islom va uning yo'l-yo'riqlari, musulmon Sharqida yaratilgan tasavvuf adabiyotining yirik namoyandasi va bilimdoni, butun hayotini sargardonlikda o'tkazib, oddiy xalq orasida

shuhrat qozongan, xalq bilan hamnafas bo'lib yashagan, xalq uchun qayg'urgan jahongashta qalandar shoir. U Shoh Mashrab, Devona Mashrab, Telba Mashrab nomlari bilan xalq orasida mashhur bo'lgan.

Teran manbalarga asoslangan mashrabshunoslar Mashrabning 1640-yilda Namanganda tug'ilib, 1711-yilda Balxda o'ldirilganligini asoslaydilar.

Mashrab Namanganda ibtidoiy maktabda o'qib, ta'lim oladi. Keyinchalik mashhur Sufi Eshon Mulla Bozor Oxund qo'lida o'qib tasavvuf qonun-qoidalarini chuqur o'rganadi. Shu bilan birga u arab tili va adabiyoti, Qur'on, hadislarni, o'zbek, fors tillarini har tomonlama o'zlashtiradi.

Mashrabning ilmga, ayniqsa, tasavvufga bo'lgan chuqur muhabbati va ishtiyoqini sezgan mullo Bozor Oxund shoir o'z tasavvufiy ilmini to'la kamolotga yetkazishni istab, uni 15 yoshida mashhur va zakovatli eshon Xidoyatullo Ofoq Xoja huzuriga Qashg'arga yuboradi. Mana shu davrdan boshlab umrining oxirigacha Mashrab hayotida sarson-sargardonlik boshlanadi.

Uni mashhur qilgan asarlari va faoliyatidagi jabhalar: «Qissai Mashrab», «Mabdayi nur» hamda xalq ichida «Avliyo» nomi bilan faoliyatining baholanishi. «Qissayi Mashrab» asari oddiy xalq orasida nihoyatda shuhrat qozongan, u qo'ldan qo'lga, avloddan avlodga o'tib, zo'r qiziqish bilan o'qib kelinmoqda. «Mabdayi nur» tasavvuf ruhida yozilgan nazmiy-badiiy, axloqiy-tarbiyaviy asardir.

Asarlari: Lirik she'rlar (sochma), bugun «Devon» shakliga keltirilgan, «Kimyo», «Qissayi Vaysul-Qarayin», «Qissayi Me'roji Rasuli akram s.a.v.».

Mashrab asarlaridagi axloqiy-tarbiyaviy jabhalar talqini:

1. Tavozelik, muloyimlik, kamtarlik insonning eng oliyjanob xislatlari va musulmonlik belgilaridir.

2. Nafs balosi kishida hirsu havoni ko'paytiradi, mutakabbirlik, g'urur, manmanlikni ziyoda qilib, insoniy xislatlardan mahrum etadi.

3. Inson tabiatidagi yana bir jirkanchli xislat ota-bobosi, nasabi nomi bilan yashash, ularning ulug'ligini o'ziga nisbat berib, men falonning o'g'liman, falonning nasabidanman deb faxrlanishdir.

4. U yolg'onchilik, riyokorlikni qoralar ekan, halollik, rostgo'ylik, poklikni eng yaxshi xislat deb uqtiradi va insonni shunday oliyjanob xislatlar sohibi bo'lishga chaqiradi.

5. Birovlarni ig'vo qilish, turli ayblar qo'yish, malomat toshlarini yog'dirish, yomonlash qattiq gunohlardan hisoblanadi.

6. Noqobil, nodon, ablah kishilar bilan do'stlashishdan uzoqlashish kerak. Ularga pand-nasihath qilishning hojati yo'q.

7. Bir-biriga do'st bo'lib yashash, yakkalanib qolmaslik, jamoadan ajralmaslik, doim xalq bilan birga bo'lish, ularning madadiga suyanish eng muhim axloqiy masaladir.

8. Aybingni yuzingga aytgan kishi sening haqiqiy do'sting, unga bo'yin egib ta'zim qil, etagini mahkam ushla.

*Kim desa aybingni dastgirim degin,
Boshidan aylangin-u pirim degin.*

Turli-tuman shakl va talqinlarda jilovlanuvchi bu dunyoqarashning butun mohiyat-mag'zi shoirning quyidagi qat'iy e'tirofida nihoyatda yaqqol va lo'nda ifodalangan:


*Bir xudodin o'zgasi barcha g'alatdir, Mashrabo,
Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay?!*



ZEBUNNISO



(1643 — 1721)



«Maxfiy» taxallusi bilan mashhur boʻlgan Zebunniso maʼrifatparvar shoira. Boburiylar sulolasidan Avrangzebning qizi. Onasi Dilrasobonu Gulbadanbegimning avlodlaridan.

Zebunniso oʻz saʼy-harakatlari natijasida zamona ilmlaridan bir nechasini oʻzlashtiradi. U tojik va fors hamda arab

tili va adabiyotidan chuqur xabardor boʻladi, badiiy kalom qoidalari va aruz ilmini oʻzlashtiradi.

U xat turlari (nastaʼliq, naxs, suls, shikasta va boshqalar)ning ustasi sifatida namoyon boʻladi. Otasi Avrangzeb qizida sheʼr va shoirlikka mayl sezgach, oʻsha davrning mashhur olimi Mullo Muhammad Sayid Ashraf Isfahoniyni unga muallim qilib tayinlaydi. Zebunniso bu olimning tarbiyasida zabardast shoira, olim, sozanda va xattot boʻlib voyaga yetadi. Soʻngra ilohiyotga oid bir asar yozib, uni shu ustoziga bagʻishlaydi.

Zebunniso Xusrav Dehlaviy, Navoiy, Bobur asarlarini sinchiklab oʻrganadi. U Hindiston olimlari, shoirlari va sanʼat ahllariga koʻp gʻamxoʻrliklar qilib, oʻz zamonasida ilm va sanʼatning rivojlanishiga taʼsir koʻrsatgan. Oʻsha zamonning koʻp olimlari shaxsan Zebunnisodan maosh olar edilar.

Shoira ijodining shakllanishi va kamolga yetishida adabiy muhitning taʼsiri kuchli boʻlgan. Akasi Aʼzamshohning adabiyotga qiziqishi, uyda boʻlib turadigan mushoiralar unda sheʼriyatga havas uygʻotadi va u yetuk shoir va olimlar bilan tanishadi. Ayniqsa, Zebunnisoning Bedil bilan mushoiralar qilishi ikki buyuk qobiliyat egalari asarlariga barhayotlik bagʻishladi. U Bedil falsafasiga hamohang ijod qiladi, asosiy mashgʻuloti sheʼriyat, musiqa va ilm boʻlgan. Sheʼrlari Markaziy Osiyoda, Hindiston, Afgʻoniston, Eron, Pokiston va boshqa Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan.

Shoira 1721-yilda vafot etgan. Uning jasadi Dehlidagi «Zarzara» qabristoniga, Nizomiddin Avliyo, Amir Xusrav Dehlaviy yoniga dafn etilgan.

Uni mashhur qilgan asosiy holatlar: ilmsevar va san'atsevarligi, odob-axloqqa oid «Zeb ut-tafosir» («Go'zal tafsirlar») risolasi, otashin g'azallari.

Zebunniso ijodiy mahsuli: «Zeb un-nashot» («Nash'alar ziynati»), «Munis ul-arvoh» («Ruhlarning sodiq do'sti»), 8000 misrali devon (g'azallar), yettita qasidasi, beshta tarje'bandi va bir muxammasi shoiradan bizgacha yetib kelgan.

Zebunniso asarlari va g'azallarida odob-axloq va ilm olishga doir g'oyalar talqini:

1. Shoira inson faqat shaxsiy rohat-farog'atini o'ylashni emas, balki g'amli, musibatxadalar dard-u firoqiga sherik bo'lish, yordam qo'lini cho'zishni haqiqiy insoniy fazilat, deb ta'kidlaydi.

2. U tamagirlikni inson obro'si va g'ururini sindiruvchi omil deb biladi.

3. Zebunniso o'zgalar aybini izlashdan oldin, kishi o'z aybini bilsa, yaxshi bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

4. Shoira insonning go'zalligi keltirilgan foydali ishida, mehnatida, qadr-qimmatini uning maqsadida deb biladi.

5. U rostlikni, haqqoniylikni targ'ib qiladi, aldamchi, firibgarlardan nafratlanadi. Tabiat tasviri orqali insonning orzu-umidlarini, adolat va haqiqatgo'ylikni kuylaydi.

6. Zebunniso butun huzur-halovatni, taqdir va baxtni, kishilar orzu qilgan jannatni ham kitobda — ilmida deb bilgan.

7. Shoira o'z g'azallarida inson do'stlikka sodiq bo'lishi lozimligini va do'stning o'z ayblarini aytishidan ranjimaslikni bayon qiladi.

8. U har kechening tongi bor, deb biladi va kishilarni umidvorlikka chorlaydi.

9. Zebunniso shoh qizi bo'lganligi bilan faxrlanmaydi, u fazl-u kamoloti va Zebunniso nomi bilan faxrlanadi.





JAHON OTIN UVAYSIY



(XVIII asrning 80-yillarida
tugʻilib, 65 yoshida vafot etgan)

Jahon otin Uvaysiy Margʻilon shaharining Childoʻxtaron mahallasida taxminan 1779-yilda dunyoga kelgan. Uning otasi Qaynar devona Kosondan kelib, Margʻilonda turgʻun boʻlib qolib ketgan. U toʻquvchi kosib boʻlib, oʻzbek va tojik tillarida sheʼrlar yozgan.

Jahonbibi dastlab otasi, onasi va akasi Oxunjon hofiz koʻmagida oʻz-oʻzicha mutolaaga beriladi. Oʻzbek, tojik mumtoz shoirlari, ayniqsa, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy asarlarini sevib oʻqib, ulardan oʻrganadi. Uvaysiy taxallusi bilan sheʼrlar mashq qila boshlaydi. U aruz vaznini hamda u bilan bogʻlangan muammo sanʼatini mukammal egallaydi.

Uni mashhur qilgan faoliyatidagi holatlar: Uvaysiy shoira sifatida katta nufuzga ega boʻlgan, vodiyda qizlar maktabiga asos solib, koʻpgina shogirdlar tayyorlagan.

Uvaysiyning maktabdorlik faoliyati qaysi yillarda boshlanganligi maʼlum emas. Ammo u turmushga chiqquncha shoira, otincha sifatida anchagina tanilib qolgan edi. Onasi Chinnibibi tahsil beradigan qizlarni oʻqitgan, keyinchalik uning oʻzi mustaqil tarzda qizlarni oʻqita boshlagan.

Shoiraning asarlari: Uvaysiyning avlodlari shoiradan 4 ta devon qolganini aytadilar. Uvaysiyning oʻz qoʻli bilan koʻchirilgan devonlaridan ikkitasi yoshlik chogʻida yoʻqolgan. Qolgan ikkitasini Loʻli otin olib ketib yoʻqotgan. Ulardan koʻchirilgan uch nusxa qoʻlyozma devon Andijon Davlat universiteti kutubxonasida saqlanmoqda. Uning qoʻlyozma devonlari OʻzFA qoshidagi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ham mavjud.

Uchala kitob ham turli davrlarda har xil kotiblar tomonidan nastaʼliq xati bilan Qoʻqon qogʻoziga koʻchirilgan. Ulardan biri 404 betdan iborat boʻlib, magʻziy qalami bilan koʻchirilgan. Bunga gʻazal, muxammas, musaddas, masnaviy, ruboiy, tuyuq, chiston, qitʼa, mustahzod kabi janrlarda yozilgan sheʼrlar, Navoiy, Amiriy, Fuzuliy, Fazliy singari shoirlar gʻazallariga bogʻlangan muxammaslar kiritilgan. Undagi sheʼrlarning hammasi 5628 baytdan iborat.

Uvaysiyning lirik she'rlaridan tashqari «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» kabi liro-epik asarlari va «Voqeoti Muhammad Alixon» kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liro-epik dostonlari islom tarixi bilan voqealar asosida yaratilgan bo'lib, bu Uvaysiyning o'z davrining bilimdon otini — muallimasi va dinimiz tarixidan chuqur xabardorligidan dalolat beradi.

Uvaysiy she'riyatidagi axloqiy-tarbiyaviy masalalarning yoritilishi va qizlar maktabi haqidagi qarashlari:

1. Uvaysiy Umarxon saroyida shoira sifatida she'r san'atidan, musiqa va adabiyotdan muallimlik qilgan.

2. Jahon otin Uvaysiy faoliyat ko'rsatgan qizlar maktabi ibrat olsa arziydigan bilim o'choqlaridan sanalgan. O'zining butun faoliyati davomida xalqimiz orzu-umidlarini ro'yobga chiqarishga harakat qilgan Jahon otin xalqimizning oqila qizlarini tarbiyalash go'zal hayotga erishishning birdan bir yo'li deb o'ylab, o'zining butun umrini yosh qizlarga ta'lim va tarbiya berishga bag'ishladi. O'zbek ayollarining ma'naviy pokligi, ularning nazm dunyosiga kirib baralla kuylashi muhim o'rin tutadi.

3. Jahon otin o'z shogirdlariga ta'lim-tarbiya berar ekan, ularga hayotni faol harakat deb tushuntiradi.

4. Uning she'rlarida pokiza yuraklarning ona qalbi, insonga mehr-muhabbat, yaxshilik kabi aks sadosi eshitiladi. Jahon otin ko'pchilik asarlarida insoniy muhabbat va go'zallikni ifoda etadi.

5. Jahon otin o'z shogirdlarini ezgulikka, vafodorlikka da'vat etadi. Insonning yurish-turishi, suhbat, muomalasi, jamoli, vafosi, sadoqati, ixlosi kabi fazilatlarni ulug'laydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Uvaysiy o'zining maktabdorlik va ijodiy faoliyati bilan yoshlar ta'lim-tarbiyasida yuksak o'ringa ega. Uning ma'rifiy faoliyatida ayollar savodxonligini oshirish, aqliy tarbiya, musiqa san'ati, qobiliyatli qizlar bilan ishlash usullari alohida o'ringa ega. U o'z davrining yosh toliblariga hayotga muhabbat tuyg'ularini singdirib borgan, tez fikrlash, chiroyli so'zlash va boshqa tarbiya vositalari bilan bog'liq bo'lgan chiston — topishmoq usullarni yaratishni o'rgatgan.





NODIRA



(1792 — 1842)

Mohlaroyim — Nodira XIX asrning birinchi yarmida yashab, ijod etgan mashhur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysidir. Shoira 1792-yili Andijon hokimi Rahmonqulbiy oilasida tavallud topgan. Uning onasi Oyshabegim ma'rifatli ayol bo'lgan. O'zining oilaviy silsilasiga ko'ra Bobur nasliga mansub bo'lib, shoiraning ota-onasi ham davrning e'tiborli kishilari edilar. Mohlaroyimning ta'lim-tarbiyasi shu muhitda kamolga yetdi va u tahsil yillarida xalqimizning tarixi, madaniyati, ilm va adabiyoti ravnaqidan yaxshi xabardor bo'lib o'sdi.

Mohlaroyim she'riyatga juda erta havas qo'ydi. Ustoz Navoiy, Jomiy va Bedil kabi allomalarning asarlariga bo'lgan e'tiqod bilan ruhan barkamollashib bordi.

Nodira Qo'qonda xon saroyida ekan, davlat ishlaridan ham voqif bo'lib borardi. Mohlaroyim va Umarxonning oilasida ikki o'g'il tug'iladi. Muhammad Alixon va Sulton Mahmudxonlar o'sib-ulg'ayib boradilar. Umarxon 1822-yili bevaqt vafot etgach, yosh Muhammad Alixon davlatni boshqarishga kirishadi. Nodira ham o'g'lining yoniga kirib, mamlakatni boshqarish ishida faol ishtirok eta boshlaydi.

Nodira Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar va naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirtiradi. U bir madrasayi oliy, naqqshdor masjid, hammom, karvonsaroy barpo qildirdi. Shunday qilib, bu ayol aqli donish va yaxshi fazilatlari bilan yagonayi zamon, Nodirayi davron bo'lib tanildi va xalqlar tahsiniga sazovor bo'ldi.

Biroq xonliklar o'rtasidagi davom etib turgan muttasil kelish-movchiliklar oqibatida Buxoro amiri Nasrullo turli vaj-korsonlar bilan Qo'qon ustiga bostirib kelib, go'yo bu yerda izdan chiqqan shariat qoidalarini nizomga solmoqchi bo'ldi. Mohlaroyimni, ikki o'g'li va nabirasi Muhammad Aminxonni vahshiylarcha qatl ettirdi.

O'zbek xalqining ajoyib shoirasi hayoti shu yo'sinda 1842-yil fojiali yakun topdi.

Nodirani mashhur qilgan asosiy holatlar: shoiraning Komila taxallusi bilan jamlangan ikki devoni va zamondoshlari tomonidan «Nodirayi davron» deb nomlanishi.

Uning ijodiy merosi: Mohlaroyimdan bizgacha o‘zbek va fors-tojik tillarida «Komila», «Nodira» va «Maknuna» taxalluslari bilan yaratilgan lirik asarlardan iborat katta meros yetib kelgan.

Nodira ijodidagi aqliy, axloqiy va tarbiyaviy g‘oyalar:

1. Insonning ruhiy holatini baland ohanglarda tarannum etadi:

*Keldi sharaf barcha odam ahlidin,
Yo‘q turur dunyoda insondin aziz.*

2. Shoira himmat, sabr-qanoat, nomus kabi xislatlarni ma’rifat asosi deb biladi. Uning talqiniga ko‘ra, odamzod shu sifatlardan mahrum bo‘lar ekan, u riyo yo‘liga kirib ketadi.

3. Nodira inson qalbida yuksak odob-axloq cho‘g‘i bo‘lmas ekan, u ishq-muhabbatni qadrlay olmasligini ta’kidlaydi va «beadab kirma muhabbat dashtig‘a» deydi.

4. Nodira o‘z she’riyatida islom ruhi, tasavvuf ta’limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug‘ini qidiradi.

5. Shoira uchun ishq, go‘zallikning nash‘asini ham, dardini ham kuyib-yonib kuylash, his qilish sharafdir.

6. Nodira tabiat maftuni, jamiyat xayrixohi va insonlarning pokiza kiyinishi, halol yurishiga hidoyat qilib, ularni hamma vaqt yaxshilik va hamjihatlikka undaydi.





KOMIL XORAZMIY



(1825 — 1899)

XIX asr ijtimoiy, madaniy hayotining yirik vakillaridan biri Komil Xorazmiy 1825-yilda Xiva shahrida tug'ilgan. U dastlab mahalladagi eski usul maktabida o'qidi, keyin madrasada bilim oldi, arab va fors tillarini mukammal o'rgandi. Firdavsiy, Rudakiy, Jomiy, Navoiy asarlarini qunt bilan tahlil qildi.

Xorazmiy 1856 — 1865-yillarda Said Muhammadxon saroyida kotiblik vazifasini bajardi, so'ngra Muhammad Rahimxon Feruz saroyida mirzaboshi lavozimida ham ishladi. Shu yillarda Sankt-Peterburg shahriga bordi, u yerdagi maktab, bilim yurti va institutlarda bo'lib, ta'lim-tarbiya ishlari bilan tanishdi. 1891-yilda uning tashabbusi bilan Xivada yangi usul maktabi tashkil qilindi. Maktabda rus tili va dunyoviy ilmlar ham o'qitildi.

Uni mashhur qilgan asari va faoliyatidagi jabhalar: Komil Xorazmiyni mashhur qilgan faoliyati tarjimonlik ishlari hamda o'zbek va fors tillarida yozgan «Kamol» nomli ma'rifiy asari.

Asarlari: «Shuaro», «Fuzalo», «Dar bayoni ta'rifi va tasnifi Toshkand». Faxriddin Ali Safiyning «Latoif ut-tavoif» («Turli toifalarning latifalari») asarini forschadan o'zbek tiliga tarjima qildi.

Bundan tashqari, «Tillo saot» va «Toshkand» deb nomlangan qasida ham yozgan.

Komil Xorazmiy 1899-yilda 74 yoshida vafot etgan.

Komil Xorazmiyning axloqiy-ma'rifiy qarashlari:

1. Komil Xorazmiy o'z asarlarida ilm-fanning mamlakat ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotidagi rivojlanishi, uning inson axloqiy kamolotida muhim omil ekanligi, axloqiy va nafosat tarbiyasi uzviy bo'lishi kerakligi haqidagi g'oyalarni ifodalaydi. U kamolot belgisi insonning ma'naviy, madaniy fazilatlarini, xatti-harakatlarida namoyon bo'lishini aytadi.

2. Xorazmiy o'z tarbiyaviy qarashlarida axloq tarbiyasiga alohida e'tibor beradi. U axloqiy kamolot insoniy fazilatlarining barqarorligiga asos ekanligini ta'kidlaydi.

3. Xorazmiy ona tili va ilg'or xorijiy davlat tillarini puxta bilish ijodiy fikr rivojiga asos ekanligi, vatan va xalqning farovonligi uchun muhim omil bo'lishi haqida fikr bildiradi.

4. Shoir vatanparvarlik va vatanni sevish haqida yozadi:

*Nihon et o'zni kofi ichra anqodek,
Senga yo'q bo'lsa murod ishtihor g'ubori aro.
Vatanga sokin o'lub sayr et olamni balo,
Safarni aylamagin ixtiyor g'urbat aro.*

5. Xorazmiy vatan va xalq uchun, uning farovonligi uchun xizmat qilishni komil insoniylik hisobladi, yoshlarni komil inson bo'lishga chorladi.

Komil Xorazmiy birinchi bo'lib o'zbek nota yozuvini ixtiro qildi. Feruzning farmoni bilan «Tanbur chiziqlari» deb ataluvchi Xorazm notasini yaratdi va «Rost» maqomining bosh qismini notaga tushirdi. Komilning «Rost» maqomiga bog'langan «Murabbayi Komil», «Peshravi Feruz» singari kuylari notaga yozilgani holda hozirgacha saqlanmoqda va xonanda hamda sozandalar tomonidan kuylanmoqda.

Shoirning bu ishini o'g'li Muhammadrasul Mirzo davom ettirib, Xorazm maqom kuylari uchun nota asosida musiqa yaratdi. Taniqli bastakor Matniyoz Yusupov esa besh tomlik «Xorazm maqomlari» kitobini nashrdan chiqardi va keng o'quvchilar ommasiga taqdim qildi.

Bir so'z bilan aytganda, Komil Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirdi va ilg'or adabiyot rivojiga katta hissa qo'shdi. O'z xalqini ma'rifatli, diyorini ozod, obod va farovon ko'rishni orzu qildi. Shoirning orzulari faqat bizning kunlarimizda ro'yobga chiqdi.





AHMAD DONISH

(1827 — 1897)

Yozuvchi, faylasuf, O'rta Osiyoda ma'rifatchilik harakatining asoschilaridan biri bo'lmish Ahmad Donish 1827-yilda Buxoro shahrida dehqon oilasida tug'ildi. U boshlang'ich bilimni uyida onasidan oladi, 9 yoshigacha maktabga kirib, arab tilini o'rgandi, tabiiy fanlarni mustaqil ravishda egal-

lab, o'z davrining bilimli kishisi bo'lib yetishdi.

Ahmad Donish dastlab eski usul maktabida, keyin esa madrasada an'anaviy islomiy ma'lumot oladi. U Buxoro amiri elchisining kotibi va o'rinbosari sifatida Rossiyada bo'lib, u yerning fani hamda madaniyati bilan tanishgach, dunyoqarashida jiddiy o'zgarish sodir bo'ladi. Vataniga qaytib kelgach, Ahmad Donish davlat boshqaruvi va maktab ta'limida jiddiy islohot o'tkazishni taklif qiladi.

Uni mashhur qilgan asari: «Navodir ul-vaqoye» uning muhim asari bo'lib, unda allomaning ta'lim-tarbiya, axloq va nafosatga doir fikr-mulohazalari, insonning xulq-atvori, mehnatga bo'lgan munosabati to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan.

Asarlari: «Bolalarga hunar va mashg'ulotlarning foydasi haqida nasihat», «Tarixiy risola». Ushbu asarlar tarixiy voqealar, o'zaro muomala munosabatlar va ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik qarashlarni qamrab olgan.

Ahmad Donish o'zining «Munozir al-kavokib» («Yulduzlarni kuzatish») nomli asarida falakiyot ilmiga oid muhim masalani hal qilgan. U «Risolat dar ilmi kurra» («Globus haqida risola») deb nomlangan asar ham yozgan bo'lib, unda globusning vazifasi, uning ilm uchun ahamiyati, undan amaliy foydalanish haqida gap boradi. 12 bobdan iborat bo'lgan «Iztig'rosi bul va arzi balat» («Joylarning uzunligi va enini o'lchash») asarida Ahmad Donish joylarning o'rnini o'lchab chiqarish, osmon meridianini soatlarda belgilash masalalari haqida mulohaza yuritadi.

Ahmad Donish 1897-yilda 70 yoshida vafot etdi.

Uning ma'rifiy qarashlari va ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari:

1. Ahmad Donish o'z asarlarida faqat o'zi yashayotgan davr uchun emas, balki kelajak uchun mehnat qilish, mehnat samarasidan kelajak

avlodni bahramand etish, mehnat qilishdan asosiy maqsad xalq uchun foyda keltirishdan iborat bo'lishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi.

2. Mutafakkirning fikricha, dunyoda mehnatsiz rohat, tashvishsiz ne'mat topish mumkin emas. Mehnat ijtimoiy xususiyatga ega bo'lishi kerak.

3. U deydi: «Har bir hunarmand o'z hunarini qilsa-yu, lekin bundan maqsad xalqqa foyda yetkazish bo'lmasa, unday hunardan baraka topa olmaydi».

4. Ahmad Donish ta'kidlashicha, jismoniy mehnat bilan aqliy mehnat o'zaro uzviylikdadir. Bu ikki mehnat bir xil mohiyatga ega. Ammo ular dunyoning gullab-yashnashini ta'minlasagina maqtovg'a sazovordir.

5. Ahmad Donish nazaricha, ilmni egallash hunarni egallash bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak, chunki tajribada qo'llanilmaydigan bilim bo'lmaydi. Har bir odamni ma'lum bir mashg'ulot yoki kasbga tayyorlash kerak.

6. U deydi: «Yosh avlodga mehnatsevarlik, vatanparvarlik, xalq-sevarlik tuyg'usini, odamlarda ozodlik va mustaqillikka havas, muhabbat tuyg'usini tarbiyalash kerak».

7. Do'stlikni u yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omil, deb hisoblaydi.

8. Xotin-qizlarning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilishga chaqiradi.

9. Alloma ilg'or madaniyat, fan va san'atning targ'ibotchisi edi.

Ahmad Donish falsafa, tarix, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, xattotlik masalalariga bag'ishlangan asarlar yozgan.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo'lyozma fondida Ahmad Donishning 16 ta risolasi va yana bir qancha she'rlari kiritilgan tazkiralalar, G'azzoliy, Jomiy asarlaridan ko'chirgan qo'lyozma nusxalari saqlanadi, ularning ko'pchiligi asl nusxa bo'lib, muallifning o'zi tomonidan bitilgandir. Masalan, 1877-yilda yozilgan «Majmuayi hikoyati Ahmad Kalla» deb nomlanuvchi qo'lyozmada muallif turli tarixiy, adabiy, falsafiy masalalar haqida fikr yuritadi.



IS'HOQXON IBRAT



(1862 — 1937)



XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan yirik allomalardan biri Is'hoqxon Ibratdir. U ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbaachilaridan biri, xattot, naqqosh, otashin publitsist va ilg'or pedagogdir. Ibrat-

ning asl ismi Is'hoqhon, otasining ismi Junaydullaxo'jadir. Ibrat uning adabiy taxallusi.

Is'hoqhon 1862-yilda Namangan yaqinidagi To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Junaydullaxo'ja bilimli sohibkor bog'bonlardan edi. U adabiyotga, she'riyatga ancha ixlos qo'ygan va «Xodim» taxallusi bilan burmuncha she'rlar bitgan kishi bo'lgan. Onasi Huribibi o'z davrining o'qimishli, oqila ayollaridan bo'lib, o'z uyida qishloq qizlarini o'qitardi va husnixat o'rgatar edi.

1870-yilda Junaydullaxo'ja vafot etib, Is'hoqhon otadan erta yetim qoladi. U onasi yordamida husnixat va mukammal savodga ega bo'lgach, o'qishni Qo'qonning Muhammad Siddiq Tunqator madrasasida davom ettiradi.

Is'hoqhon Ibrat 1887-yilda Qo'qon madrasasini tugatib, To'raqo'rg'onga qaytib keladi va ijodini ilg'or o'qituvchi sifatida qishloqda ma'rifat tarqatish bilan boshlaydi.

1887-yilda Is'hoqhon onasining iltimosiga ko'ra, uni haj safariga olib boradi. Huribibi yo'lda qattiq shamollab, olti oylik betoblikdan so'ng Jidda shahrida vafot etadi. Is'hoqhon onasini Jidda shahrida dafn etib, Sharq mamlakatlari bo'ylab sayohatni davom ettiradi va Yevropaning Istanbul, Sofiya, Afina va Rim singari markaziy shaharlarida bo'ladi. 1896-yilda Hindistondan Birma orqali Xitoyga, so'ngra Qashg'arga o'tadi. Qashg'ardan o'z vatani Namanganga qaytib keladi.

Is'hoqhon Ibrat 1937-yilda 75 yoshida vafot etgan.

Uni mashhur qilgan asari va faoliyatidagi holatlar: Is'hoqxonning tilshunoslikka oid tuzgan «Lug'ati sitta al-sina» asari va 1908-yilda o'zi qurdirgan hammom o'rnidagi «Matbayi Is'hoqiya»si uning mashhur bo'lishiga sabab bo'ldi.

Asarlari: U o'zining «Tarixi madaniyat» asarida xabar berishicha, keyingi 20 yil ichida 14 ta ilmiy, tarixiy, lingvistik, pedagogik asarlar va 30 yillik poetik ijodining majmuyi bo'lmish «Devoni Ibrat» she'rлар to'plamini yaratgan. Biroq bizgacha «Jome' ul-hutut», «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat» va «Mezon ul-zamon» asarlari yetib kelgan.

«Matbayi Is'hoqiya» faoliyatiga oid: Turkistonning chekka qishlog'ida matbaaning vujudga kelishi o'zbek xalqining fan va madaniyat sohasidagi katta yutug'i edi. Bu litografiya o'z faoliyatini ilm-ma'rifat tarqatishdan, maktablar uchun darslik, qo'llanmalar nashr qilishdan boshladi. Bu yerda u 1908-yilda savod chiqarishga bag'ishlangan «San'ati Ibrat», «Qalami Mirrajab Bandiy», keyinchalik «Ilmi Ibrat» nomli she'rлар to'plamini, yozuvlar tarixiga bag'ishlangan «Jome' ul-hutut» kabi ma'rifatparvarlik ruhi bilan sug'orilgan risola va kitoblarini nashr qildirdi.

Ibratning ma'rifatparvarlik g'oyalari:

1. «Madaniyatni topadurg'on va yurg'izadurg'on asbobi ilm ekan, ilm bo'lsa, maktab ila bo'lur. Maktab bo'lmasa, olamni vahshiyat tutib, hamma harob bo'lur, ishlar qo'ldan ketar. Endi lozim bo'ldiki, madaniyat ilm bilan, ilm esa maktab bilan bo'lur. Maktab bo'lmasa, bu olamda madaniyat joriy bo'lmaydir».

2. Xotin-qizlar ozodligi, ularning erkaklar bilan bir qatorda ilm olishlari va mehnat qilishlariga erishish lozim.

3. Maktablar ochish, malakali o'qituvchi kadrlar tarbiyalab yetishtirish vazifamizdir.

Is'hoqxon Ibrat ayollar, yoshlar o'rtasida maktabning ahamiyati, ilm-fan yutuqlari haqida suhbatlar, ma'ruzalar uyushtirib turdi.

U bu davrda ijodiy ish bilan bir qatorda jamoat ishlarini ham olib bordi. Ibrat qishloqni obodonlashtirish, maorif, madaniyat, ta'lim-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashda faol qatnashdi. Maktablar ochish, malakali o'qituvchi kadrlar tarbiyalab yetishtirish, yoppasiga savodsizlikni tugatish, xalq farzandlarini maktablarga tortish yillarida faol ishtirok etdi.





MAHMUDXO'JA BEHBUDIY

(1874 — 1919)

Turkistonda jadidchilik harakati asoschilaridan biri, atoqli jamoat arbobi, buyuk islomshunos, ulug' pedagog va axloqshunos, yuksak didli jurnalist Mahmudxo'ja Behbudiy 1874-yilning 10-martida Samarqandning Baxshitepa qishlog'ida, ruhoniy oilasida tavallud topgan.

Mahmudxo'ja 6 — 7 yoshlarida otasi yordamida xat-savodini chiqarib, Qur'onni yod ola boshladi. Qur'onni yod olgan Mahmudxo'ja bu bilan qanoatlanmay, 15 yoshidan tog'asi mufti mulla Odil huzurida dars olishga kirishadi. Bu yerda u «Qofiya», «Sharhi mullo», mantiqdan «Shamsiya», «Muxtasar al-vaqoya», «Hoshiya» va hisob ilmini ham o'rganadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy otasi vafotidan keyin Samarqand muzofoti «Chashmayi ob»da qozilik qilayotgan tog'asi Muhammad Siddiq huzurida mirzolik qiladi va ikki yildan so'ng muftilik darajasiga ko'tariladi.

Behbudiy Makkaga borish uchun jiddiy tayyorgarlik ko'radi, arab tilini o'rganadi, islom nazariyasi bilan tanishadi. Hajni yetuklik imtihoni deb biladi va nihoyat, 27 yoshida Makkada bo'lib, hoji, mufti unvonlari bilan qaytadi.

Uni mashhur qilgan holat va asarlari: Behbudiyning nomi Turkiston maorifida keng o'rin egallaydi. U «Usuli jadid» maktablarini ochadi va 1918-yilda Samarqandga maorif komissari etib tayinlanadi. Behbudiyning 1913-yilda bosilgan «Padarkush» dramasi unga juda katta shuhrat keltiradi. Bu drama qisqa vaqt mobaynida Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on va boshqa shaharlardagi teatr truppalari ommaviy sura'tda sahnalashtiriladi.

Asarlari: Mahmudxo'ja Behbudiy «Usuli jadid» maktablari uchun bir qancha darsliklar yozadi. «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Madhali jo'g'rofiya umroniy» («Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofi rusiy» («Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»), «Amaliyoti islom», «Kitobat ul-atfol», Risolayi asbobi savodi».

Uning publitsistik merosi: Behbudiyning bu sohadagi ijodiyoti, asosan, ta'lim-tarbiya hamda uning muammolari haqida bo'lib, ular:

«Imon va Islom», «Ihtiyoji millat», «Buxoroda usuli jadid», «Hurriyat — Ozodlik — Erkinlik», «Tahsil oyi», «Ikki emas, to'rt til lozim», «Turkiston», «Millatni kim isloh etar», «Yoshlarga murojaat», «Vatanparvarlik kerak», «Bizni kemiruvchi odatlar», «Buxoro xonligiga sayohat», «Ibtidoiy maktablarimizning tartibsizligi yoxud taraqqiyning yo'li», «Bizga isloh kerak», «Haq olinur, berilmas», «Samarqandda milliy ishlar haqida» va boshqalardir.

Behbudiyning ta'lim-tarbiya, maorif haqidagi qarashlari va g'oyalari:

1. Axloq va tarbiyaning asosi — maktab, barcha ilmning boshi va ibtidosi — maktab, saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi — maktab.

2. Yangi usul maktablari, ularning ahamiyati, o'qitish tizimlari, yangi maorif va madaniyatni rivojlantirish, dunyoviy fanlarning nafi, ma'rifatga rag'bat komil inson tarbiyasi haqidagi muhim ma'rifiy fikrlardandir.

3. «Usuli jadid» maktablari yutuqlarini ko'rolmaganlarga: «Kelib ko'rsunlar, durust bo'lsa rivoj bersunlar, nodurust bo'lsa, dalil ila isbot qilsunlar... maqsadimizda xizmatdan va millatdan boshqa narsa yo'qdur».


4. «Bizlarni xonavayron, bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir».

5. «Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilmi fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur».

Behbudiy 1919-yil 23-martda Shahrisabz qamoqxonasida millatchi jadid sifatida qatl etilgan.

Mahmudxo'ja muharrirligi ostida chiqq boshlagan «Oila» jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalari, dunyo ahvoriga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turgan. Behbudiy millatning taraqqiyi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. U jurnalning 1913-yil 13-avgust birinchi — nishona sonidayoq «Ikki emas, to'rt til lozim» degan maqola bilan chiqqan edi.





ABDUQODIR SHAKURIY

(1875 — 1943)

Abduqodir Shakuriy (ba'zi manbalarda Shukuriy) 1875-yilda Samarqandning Rajabmin qishlog'ida, bog'bon oilasida tug'ilgan. Eski usuldagi maktabni tamomlaganidan keyin Samarqand shahridagi madrasaga o'qishga kiradi. Shakuriy o'zbek va tojik tillarida yozgan tarjimai hol-

larida rus gimnaziyasiga borib, uning ichki tartib-qoidalari va o'qitish usullari bilan tanishligi qayd etiladi. Shundan keyin Qo'qonga borib, yangi maktabdagi o'qish-o'qitish usullari bilan tanishadi. Samarqandga qaytib kelgach, bu yangi usullarni o'zi ochgan maktabda qo'llay boshlaydi. Dastlab maktabda o'quv jihozlarini o'zgartiradi. Ustalariga parta va doskalar buyurtiradi. Shu asosda birinchi marta o'z qishlog'i Rajabminda 1901-yilning kuzida yangi usuldagi maktab tashkil qiladi.

Shakuriy o'z o'quvchilari uchun bir yilda bir marta imtihon uyushtiradi. Imtihonda u ota-onalar oldida o'quvchilarning bilimi natijalarini namoyish qiladi. Ota-onalar esa o'z bolalarining qisqa muddatda xat-savodli, hisob, geografiya va tibbiyotdan ma'lumotga ega bo'lganini ko'rib hayratlanardilar. Shakuriy maktabining shuhrati keng tarqala boshlaydi. Jumladan, 1909-yilda Hamza Hakimzoda Niyoziy Shakuriy ochgan maktabni ko'rish, uning imtihonlarida qatnashish uchun Samarqandga keladi. Imtihon natijalari unda yaxshi taassurot qoldiradi.

Shakuriyni mashhur qilgan asari va faoliyatidagi holatlar: Birinchi alifbeni Shakuriyning o'zi tuzadi. «Rahnomayi savod» («Savod chiqarish») deb nomlangan bu kitob yaxshi qog'ozda nasta'liq xati bilan yozilgan edi. Bu kitobda so'zlar bo'g'inlarga ajratilib ko'rsatilgan, kitob oxirida o'qish uchun kichik material berilgan. Shakuriy ko'p yillik pedagogik faoliyati natijasida bolalarni o'qitishda «tovush-harf» usuli eng qulay usul ekanligini asoslab beradi. 1913-yilda Shakuriy rahbarligida o'z shogirdlaridan va Samarqandning mashhur pedagoglaridan biri Ismatulla Rahmatullayev bilan hamkorlikda harf-tovush usuli asosida yangi alifbo tuziladi. Bu kitob Toshkent shahrida nashr qilinadi. Kitob arab imlosida, tojik tilida yozilgan bo'lib, undan ko'p yillar davomida

savod chiqarishda eng yaxshi o'quv qo'llanma sifatida foydalanib kelindi.

Asarlari: «Rahnomayi savod», «Alifbe ta'limi», «Jome' ul-hikoyat» («Hikoyatlar to'plami»), «Zubdat ul-ash'or» to'plami va boshqalar.

Shakuriyning ta'lim-tarbiya va o'qitish usullariga oid qilgan ishlari:

1. Uning maktabidagi o'qitish usuli eski maktablardagi o'qitish usullariga qaraganda savod chiqarishni ancha yengillashtirar edi.

2. U faqat o'qituvchilik qilish bilan cheklanib qolmay, o'z maktabi uchun darsliklar yozib, ularni o'z mablag'lari hisobiga nashr qildirgan.

3. «Jome' ul-hikoyat» kitobining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, undagi o'quv materiallarining hammasi bolalarda axloqiy fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Shakuriy qizlar uchun ham yangi usuldagi maktab tashkil qilib, xotini uning rahbarligida muallimlik qilar edi. Keyinchalik o'g'il va qiz bolalar guruhini birlashtirib o'qita boshlaydi.

5. Samarqand maktablarida Shakuriy birinchi bo'lib mehnat va musiqa darslarini kiritdi. U bolalarni qishloq xo'jalik va bog'dorchilik ishlari bilan tanishtirishdan tashqari, ularga muqovasozlik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar edi, bu mashg'ulotlar uchun alohida soatlar ajratgan edi.

Ma'rifatparvar murabbiy Shakuriyning yangi usuldagi maktablar tashkil qilishda, o'qituvchilarning katta guruhini tarbiyalab yetishtirishda xizmatlari katta bo'lgan.

Shakuriy o'sha davrdagi qiyinchilik va to'sqinliklarga qaramay, xalqning bu sodiq do'sti, ma'rifatparvar pedagog butun kuch-quvvatini yangi usuldagi maktab tashkil qilishga sarf qildi, katta g'ayrat, zo'r havas bilan yangi usul asosida o'qish-o'qitish tartiblarini o'rgandi, savodga o'rgatishning eng qulay va oson usullarini tanlab oldi, yangi usul maktablari uchun darslik va qo'llanmalar tuzib nashr qildirdi.





MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXON O'G'LI

(1878 — 1931)

Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li Turkiston tarixida milliy maorif va madaniyat, ijtimoiy-siyosiy sohalarda tub burilish yasagan, jadidchilik harakatining tashkilotchilaridan biri bo'lgan.

Munavvar qori 1878-yilda Toshkent shahrining markaziy dahasi Shayx Xovand Tohurning Darxon mahallasida mudarris Abdurashidxon va Xosiyat otin oilasida dunyoga kelgan. U yetti yoshida otasidan ajraladi. Dastlabki ta'limni onasi va Usmon domladan oladi, so'ng Yunusxon madrasalaridan birida tahsil ola boshlaydi. Keyin Buxoroda o'qigan. Ammo ko'p o'tmay, moddiy qiyinchiliklar tufayli Toshkentga qaytib keladi va Darxon masjidida imomlik qiladi. Shu davrda Toshkentda ham jadidchilik harakati kuchayadi. Munavvar qori bu harakatga taraqqiyparvar sifatida qo'shilib, tezda uning yo'lboshchisiga aylanadi. U ayniqsa Ismoilbek G'aspiralining «Usuli savtiya» maktabiga qiziqib qoladi. Shunday qilib, Munavvar qori 1901—1904-yillarda qrimlik do'sti Rasm Keshod yordamida Toshkentda «Usuli savtiya» maktabini ochadi, ayni vaqtda masjidda imomlik ham qiladi.

Uni mashhur qilgan holatlar: o'z millati fidoyisi sifatida Turkiston musulmon xalqlari milliy-ozodlik harakatining Toshkentdagi «Sho'royi islomiya», Qo'qondagi «Turkiston muxtoriyati» tashkilotlariga rahbarlik qilgani hamda boshqalar bilan hamkorlikda «Jamiyati xayriya» tashkil etgani.

Asarlari: Munavvar qori XIX asrning 90-yillari oxirlarida jadidlarga qo'shilib, 1901-yilda Toshkentda birinchilardan bo'lib «Usuli jadid» maktabini ochadi. Bu maktab uchun «Adibi avval», «Adibi soni» kabi alifbo va xristomatiyalar, «Tajvid al-Qur'on» (Qur'on qiroati), «Yer yuzi» («Geografiya») singari qo'lyozmalar tuzib nashr ettiradi.

Munavvar qori nashr ettirgan va muharrirlik qilgan jurnallar: «Xurshid», «Najod», «Sur'at», «Xaqiqat», «Turon» shular jumlasidandir. Bu jurnallar o'zbek xalqining ko'zini ochishga, fikriy uyg'otishiga, o'z haq-huquqini tanishiga xizmat qiladi.

Munavvar qorining milliy maorif, madaniyat va millatni inqirozga eltuvchi omillar xususidagi qarashlari:

1. Matbuot elni g'afolat uyqusidan uyg'otuvchi buyuk kuch, madaniyat va ma'rifatga chorlovchi qudratli vosita, haqiqat ko'zgidir.

2. Turkistonda maktab va madrasa yo'q emas, bor, ammo ular benizom va beusuldir... Turkistonlik yoshlarning tarbiyasi va ta'lim olishiga jiddiy e'tibor berilmayapti, millatning istiqboliga loqayd va beparvo qaralmoqda.

3. Turkiston xalqining boshiga kelgan falokatlar har biri yolg'iz nodonlik va maorifsizlik orqasidangina bo'lganligi har kimga ma'lumdur. Kelajakda bunday falokatlardan qutulmoq va Turkiston xalqi tilagan ravishda idora qilmoq va dushmanlardan saqlanmoq yolg'iz maorif vositasi bilangina mumkindir.

4. Millatning inqirozi sabablari: «Bu zamonadan yuz yildan ziyodroq muqaddam zamondan boshlab, ohista-ohista millat devorlarining har tarafida rahna paydo bo'ldi. Munga sabab, ulamolarimizning o'z naflari rioyasida harakat qilmoqlari bo'ldi. Podshoh va xonlarimiz bo'lsa, millatga qilgan xizmatlari tanho xotun olmoq va kuchuk urishtirmoq, bag'ayrat va bahaqqoniyat dindor kishilarni badarg'a qilmoq va tutib o'ldirmoq bo'ldi. Millat nima va shariat nima bilmadilar. Shuning uchun millat devorining rahnalari tobora ziyoda bo'ldi».

Umuman, Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li ma'rifatparvar inson, istiqlol uchun kurashgan, pedagogik fikr rivojiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim sifatida shuhrat qozondi.

O'z xalqini, vatanini jon-dilidan sevgan Munavvar qori shaxsga sig'inishning dastlabki qurbonlaridan bo'ldi. U avval Toshkentda, so'ng Moskvada tergov qilinib, otib o'ldirishga hukm etildi. Bu ulug' insonning nomi xalq yodidan hech qachon o'chmaydi.

Munavvar qori millat tarixida birinchi navbatda jamoat va siyosiy arbob sifatida qoldi. U XIX asrning 90-yillari oxiridan umrining so'ngigacha Millat va Vatan ravnaqi, ozodligi yo'lida kurash olib bordi. Uning butun ijodi va faoliyati mana shu ikki masala atrofida kechdi.



ABDULLA AVLONIY



(1878 — 1934)



Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'analari, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalalarni aks ettirgan pedagog olimdir.

Abdulla Avloniy 1878-yilda Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, mayda to'quvchi oilasida dunyoga kelgan. U 1907-yilda «Shuhrat», «Osiyo» nomli yangi gazetalar chiqara boshlaydi. Lekin chor amaldorlari tez orada gazetani yop tiradilar. Abdulla Avloniy keyinroq «Sadoyi Turkiston» (1914 — 1915), «Turon» (1917), «Ishtirokiyun» (1918) gazetalarida, «Kasabachilik harakati» (1921) jurnalida muharrir bo'lib ishlaydi. Shundan so'ng, u o'zbek matbuotining zabardast vakili va asoschilaridan biri sifatida taniladi.

1919 — 1920-yillarda Avloniy Afg'onistonning Hirot shahrida Sovet elchixonasida bosh konsul bo'lib ishlaydi.

1924 — 1929-yillarda O'rta Osiyo universitetida (SAGU) va boshqa oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilish bilan birga ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib boradi. 1933-yilda o'zbek maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun «Adabiyot xrestomatiyasi»ni tuzadi.

Avloniyning o'zbek madaniyati va adabiyotini yuksaltirishda qilgan xizmatlari uchun 1925-yilda «Mehnat qahramoni» unvoni, 1930-yilda ilmiy ishlari va mehnatsevarligi uchun «O'zbekiston ma'orifi zarbdori» unvoni beriladi.

Abdulla Avloniy 1934-yilning 25-avgustida Toshkentda vafot etadi.

Uni mashhur qilgan asari va faoliyati: «Turkiy Guliston yoxud axloq» asari hamda «Usuli jadid» maktabi va o'zbek xalq teatrini professional teatrga aylantirish uchun «Turon» nomi bilan teatr truppasini tashkil qilishga erishgani.

Asarlari: «Adabiyot yoxud milliy she'rlar», «Birinch muallim», «Ikkinchi muallim», «Maktab gulistoni».

Avloniyning truppa uchun yozgan va tarjima asarlari: «Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi» kabi dramalari va «Qotil Karima», «Uy tarbiyasining bir shakli», «Xiyonat-

kor oilasi», «Badbaxt kelin», «Jaholat», «O'liklar» kabi sahna asarlarini tatarcha va ozorbayjonchadan tarjima qildi.

Allomaning axloqiy-ma'rifiy g'oyalari va tarbiyaga oid qarashlari:

1. «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir».

2. «Agar bir kishi yoshligida nafi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turib yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur».

3. «Tarbiya berish, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan vazifadir... negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir».

4. «Aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir, ruh ishlovchi, aql boshlovchidir... insonni hayvonlardan so'z va aql ila ayirmishdur».

5. «Ilm dunyosining izzati oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur».


6. «Har bir ishda sabr ila harakat qilmoq lozimdur. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdir, maqsadga yetish yo'lidir... Sabr shodlikning kalitidir».

7. «Mol va ashyo o'g'rilaridan ko'ra, odamlar orasida do'stlik, ulfat, muhabbatni o'g'rilyaydurg'on odamlardan saqlanmoq lozimdur».

8. «Inson boshqa gunohlarini nafsining lazzati uchun qiladur. Ammo g'iybat sohibi lazzat o'rniga, o'z boshiga yo bir boshqa kishining boshiga bir balo hozirlyadur».

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Milliy pedagogikani rivojlantirish uchun qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi.





SADRIDDIN AYNIY



(1878 — 1954)

Sadriiddin Ayniy 1878-yilda Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi Soktore qishlog'ida, dehqon oilasida tug'ilgan. Shu qishloqdagi eski usul maktabida bilim oladi. 1890 — 1900-yillarda Buxorodagi Mir Arab, Badalbek, Hoji Zohid madrasalarida tahsil oladi. 1909-yilda Buxoroda yangi usul maktabini

ochadi. «Yoshlar tarbiyasi» nomli darslik yozadi.

1917-yil voqealaridan keyin Samarqandga keladi va umrining asosiy qismini shu yerda o'tkazadi.

Olim tojik adabiyotining mumtoz yozuvchilari ijodini o'rganish yuzasidan ham katta ilmiy izlanishlar olib boradi. Rudakiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Ahmad Donish kabi allomalar haqidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan fan sohasiga katta hissa qo'shadi. Leningrad Davlat dorilfununi ilmiy kengashi Ayniyning fan sohasidagi ulkan xizmatlarini yuksak baholadi va unga filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini berdi. U yerli ziyolilarning ko'plab doktorlik va nomzodlik ishlariga rahbarlik qildi.

Sadriiddin Ayniy 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi, Tojikiston Fanlar akademiyasining akademigi etib saylandi.

Uni mashhur qilgan asarlari: Ayniyning keng jamoatchilikka tanitgan asarlari o'zbek va tojik tillarida yozilgan «Qullar» romani va to'rt qismdan iborat «Esdaliklar»idir.

Asarlari: «Xolida yoki qiz bola» o'qish darsligi, «Buxoro inqilobi uchun materiallar», «Mang'it amirining tarixi», «Tojik adabiyotidan namunalar», «Qul bola yoki ikki ozod», «Doxunda», «Yetim», «Sudxo'ring o'limi», «Buxoro jallodlari» va boshqalar.

Uning ma'rifatparvarlik va ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari:

1. Sadriiddin Ayniy o'z ma'rifatparvarlik, insonparvarlik, xalqsevarlik g'oyalarini ilgari suradi. Uning fikricha, tarbiyaning asosiy maqsadi bolani vatanga, xalqqa sadoqatli qilib kamol toptirishdir. U ijodiy va ma'rifiy faoliyatlarida, o'qish kitoblarida bu g'oyani bolalarning ongiga singdirishga harakat qildi.

2. Ayniy xalqning aql-zakovati va kuch-qudratini o'zaro do'stlikda, mehr-oqibatda ko'radi, bolalarda xalqqa xos bu fazilatlarni tarkib toptirishga da'vat etadi.


3. Ayniy axloqiy tarbiyalangan bola hech vaqt yolg'on gapirmasligi, hamma vaqt chin so'zli, sof vijdonli bo'lishini aytadi, saxiylik, xayrixohlik, kamtarlikni axloqiy fazilat hisoblaydi va bolalarni tarbiyalashda shu fazilatlarni rivojlantirishni uqtiradi.

4. Ayniy axloq haqidagi qarashlarida kamtarlik eng yuksak insoniy fazilat ekanligini alohida ta'kidladi. Uning uqtirishicha, bolalarni kamtarlik ruhida tarbiyalashda shaxsiy namuna, o'rnak bo'lish muhim omildir.

5. Ayniy mehnatni ulug'laydi, mehnat insonga hurmat, obro', baxt baxsh etishini ta'kidlab, oilada bolani yoshlik vaqtdan mehnatga ko'niktirish kerakligini aytadi.

Ayniy 1946 — 1950-yillarda Samarqand Davlat universitetida o'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri bo'lib xizmat qildi, o'zbek mumtoz adabiyotidan dars berdi. U o'zbek va tojik adabiyoti, ta'lim-tarbiya sohasidagi samarali xizmatlari uchun davlatning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi.





ABDURAUFI FITRAT

(1886 — 1938)

Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1896-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Fitrat Abduraufning adabiy taxallusi bo'lib, bu so'z tug'ma tabiat, tug'ma iste'dod degan ma'noni anglatadi. Uning otasi o'zbek, onasi tojik bo'lgan.

XX asr boshida, butun Sharqda bo'lgani kabi, Buxoroda ham ijtimoiy fikr taraqqiyotida jiddiy uyg'onish boshlanib, jadidchilik harakati keng yoyiladi. Buxoroda jadidlar «Yosh buxoroliklar» nomi bilan ish olib boradilar. Fitrat mana shu harakatning rahbarlaridan biri edi. U 1909-yili 25 yoshida «Jamiyati xayriya» ko'magida Turkiyaga o'qishga ketadi.

1913-yil 4 yillik o'qishdan so'ng Fitrat ilg'or qarashlar bilan Buxoroga qaytib keladi. U endi faqat ma'rifat va madaniyat tarqatish g'oyasi bilangina yashay olardi.

1922 — 1923-yillarda Fitrat Buxoro Xalq Respublikasining Maorif noziri sifatida o'zbek va tojik bolalarini Germaniya va Turkiyaga o'qishga yuboradi. Ular Yevropadagi ilg'or ta'lim-tarbiya, ilm-fan, texnika sirlarini o'rganib qaytadilar.

Fitrat 1923 — 1924-yillarda Moskva va Leningradda yashab ijod qiladi. Leningrad Davlat dorilfununi 1924-yili Fitratga o'zbek va tojik mumtoz adabiyotlaridan qilgan ilmiy-tadqiqot ishlari uchun professorlik unvonini beradi. Fitrat O'rta Osiyning birinchi professori bo'lib tarixga kiradi.

Fitratga 1938-yil 5-oktabrda sud tomonidan «Xalq dushmani» deb ayb qo'yilgan va otishga hukm qilingan. Bu hukm bir kun oldin ijro etilgan.

Allomani mashhur qilgan asari va faoliyatidagi holatlar. Fitratning «Rahbari najot» asari to'la ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlanadi. Uning faoliyatidagi asosiy mashhurlik «Yosh buxoroliklar» harakatidagi rahbarlik faoliyatidan boshlanadi.

Asarlari: «Oila», «O'zbek adabiyotidan namunalari», «Munozara», «Sayyohi hindi», «Sayha» («Na'ra») she'rlar to'plami, «Begimjon», «Mavludi sharif», «Abomuslim», «Temur sag'anasi», «Chin sevish»

kabi dramatik asarlari hamda «Siyosiy hollar», «Turkiston muxtoriyati» publitsistik maqolalari. Shuningdek, uning «Uchqun» she'rlar to'plami, «Qiyomat» hikoyasi, «O'g'izxon», «Qon», «Hind istilochilari», «Abul-fayzxon» drama asarlari va maqolalari yaratilgan.

Fitratning ta'lim-tarbiya va axloqqa oid qarashlari:

1. Alloma tarbiyaning quyidagi uch turiga e'tibor qaratishni o'ta-onalarga uqtiradi:

- a) jismoniy tarbiya — salomatlik;
- b) aqliy tarbiya — sog'lom fikrlilik;
- d) axloqiy tarbiya — axloqiy poklik.

2. «Agar har bir ota o'z farzandining badbaxt bo'lishini xohlamasa, uni bu maydonning g'olibi qilib tayyorlashi kerak. Farzandingizni jismoniy, aqliy, ruhiy tomondan barkamollikka yetkazing va jamiyatning qobil a'zosiga aylanishi uchun g'amxo'rlik qiling».

3. Yomonning yomonligini, yaxshining yaxshiligini muhokama orqali tushuntiring, doim shunga diqqat qilingki, bolalar hech narsani ko'r-ko'rona taqlid sifatida qabul qilmasin.


4. Axloqiy tarbiyaning vazifasi «insonni axloqiy barkamollikka yetkazish va uni jamiyatga foydali inson qilib tarbiyalashdan iboratdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarni jismoniy va fikriy tarbiyaga da'vat qiling, keyin axloqiy quvvatlarni muhokama orqali tushuntiring, ularni yaxshi ishlarga odat qildiring, yomon ishlardan nafratlantiring».

5. «Xalq baxti uchun kurashmagan yoshlarni bo'shang, jasoratsiz deb biling».

6. «Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi, bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar».

Leningrad Davlat dorilfununi 1924-yili Fitratga o'zbek va tojik mumtoz adabiyoti namoyandalari to'g'risidagi tadqiqotlari uchun professorlik unvonini taqdim etgan. Fitrat «O'zbek adabiyotidan namunalar» kitobida o'nlab mumtoz adabiyotimiz vakillari haqida ma'lumot bergan.





HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY



(1889 — 1929)

O'zbek xalqining to'ng'ich pedagogi, shoir, adib, dramaturg, kompozitor Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yil 16-iyulda Qo'qon shahrida, tabib oilasida tug'ilgan. Hamza o'zining o'qishga bo'lgan zo'r ishtiyoqi tufayli 12 yoshidayoq xat-savodli bo'lib yetishadi. 1906-yilda madrasaga kirib

o'qishni davom ettiradi. Shu bilan birga Sharq allomalarining mumtoz asarlarini mustaqil ravishda o'rgana boshlaydi.

Hamza yozuvchilik ishiga 16 yoshdan boshlab kirishgan. Uning shaxsiy arxivida saqlangan materiallar orasida 1905 — 1914-yillar mobaynida yozilgan 214 ta she'rning ro'yxati bor. Hamzaning «Devon»iga 214 ta she'rdan 197 tasi kiritilgan.

Hamza 1911-yili Qo'qonning Hojibek guzarida maktab ochib, yetim va kambag'al bolalarni o'qitadi, o'quvchilar uchun «Yengil adabiyot», «O'qish kitobi» o'quv qo'llanmalarini yaratadi. Maktabda o'qish-o'qitish ishlariga ba'zi bir o'zgarishlar kiritib, quruq yod olish usulini yo'qotishga harakat qiladi, sinfdan tashqari tarbiyaviy mashg'ulotlarga ko'p e'tibor beradi, ona tili darsiga alohida ahamiyat bilan qarab, mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratadi.

Hamzani mashhur qilgan asarlari va faoliyatidagi holatlar: «Boy ila xizmatchi» va «Zaharli hayot» dramatik asarlari, rejissyorlik va pedagogik faoliyati, «Sayyor dramtruppa» tashkil qilgani.

Asarlari: «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul» ashularlar to'plamlari, «Yangi saodat» qissasi, «Tuhmatchilar jazosi», «Kim to'g'ri?» pyesalari, «Baxil», «Saxiy», «Zolim», «Rahm», «Xiyonat», «Xoin» va «Sadoqat» hikoyalari.

Hamzaning ilm, ma'rifat, madaniyat va bola tarbiyasi haqidagi fikrlari:

1. Yuksak kuchga ega bo'lgan tarbiya ilm, odob, hunar tarbiyasini o'z ichiga olgan bir butun jarayon bo'lishi kerak.

2. Bolaning aqliy rivojlanishi, irodasi, xulq-atvori, umuman, ma'naviy fazilatlari tarbiya orqali shakllanadi. Bolaning kim bo'lib yetishishi uning nasl-nasabiga emas, balki unga beriladigan tarbiyaga bog'liqdir.

3. Har bir inson jamiyat, tabiat va hayvonot dunyosidan xabardor bo'lishi uchun ilm-fanlarni egallashi zarur.

4. Bolalarni har tomonlama rivojlangan va barkamol kishi qilish yetishtirish uchun o'qituvchining o'zi chuqur bilimga ega, qobiliyatli va yuksak axloqiy fazilatli bo'lishi kerak.

5. Bola odobning boshini ota-onadan oladi, o'rganadi, bunga jiddiy e'tibor berilmasa, tarbiya juda qiyin kechadi va yomon oqibatlarga olib borishi aniq.

6. Yoshlardagi insonparvarlik kishilarning qadr-qimmatini anglash, uni hurmat qilish, inson huquqlarini himoya etish, ularga hurmat bilan muomala qilishdan iborat bo'lishi kerak.

7. To'g'rilik, to'g'riso'zlik eng yaxshi fazilat, aldanchilik, yolg'on so'zlilik yomon illat. « To'g'ri so'zli kishilar har joyda e'tiborli, dili, yuzi ravshan bo'lur».


8. «Shitobning ziddi-dushmani — sabrdir. Sabr — chidamli, ya'ni har ishda oshiqmaslik... sabrli kishilarda pushaymon va armon bo'lmas... sabr kishilarning yuragi bo'lib, dunyodan balo kelsa-da, ko'kragiga yetmay yo'q bo'lib ketar».

1926-yilda Hamzaning badiiy ijodidagi muvaffaqiyatlarini va jamoat ishlaridagi faoliyatini taqdirlab, «Xalq shoiri» degan faxriy unvon beriladi va umrbod shaxsiy nafaqa tayinlanadi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy Shohimardonda bo'lgan vaqtida ham o'z ilg'or fikrlarini targ'ib qiladi. Ammo u bu yerda joylashib olgan dushmanlar tomonidan 1929-yil 18-martda fojiali halok qilinadi.

Hamzaning ma'rifatchilik faoliyati Turkistonda XX asrning boshidagi umumiy ma'naviy o'zgarishlar, ilg'or pedagogik va ijtimoiy falsafiy fikrlar, jadidchilik harakati rivojiga muhim ta'sir ko'rsatdi. U o'z ijodi bilan o'zbek milliy adabiyotining taraqqiyotida, undagi realistik yo'nalishning borgan sari rivoj topishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'z xalqi, vatanining farovonligi, ma'naviy rivoji yo'lida charchamay, nihoyatda foydali ishlarni amalga oshirdi.





ABDULHAMID CHO'LPON

(1897 — 1938)

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijonda Qator-terak mahallasida hunarmand oilasida tug'ilgan. U Andijonda eski maktabda o'qiydi, keyin rus-tuzem maktabida o'qib, rus tilini to'liq o'rganadi.

Abdulhamid Cho'lpon Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil olib, arab, fors va turk tillarini ham mukammal egallaydi. Cho'lpon butun umrini Sharq mumtoz adabiyotini chuqur o'rganish va tahlil qilishga bag'ishladi. Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Sa'diy, Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, Alisher Navoiy kabi so'z san'atkorlarining asarlarini sevib mutolaa qilish shular jumlasidandir.

Cho'lpon matbuotchi sifatida: U 1914-yildan chiqa boshlagan «Sadoyi Turkiston» va «Sadoyi Farg'ona» gazetalarida o'z maqolalari bilan qatnashadi. 1920-yilga qadar «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq», «Turkiston» va «Buxoro axboroti» gazetalarida mas'ul lavozimlarda xizmat qiladi.

Abdulhamid Cho'lpon millatchi, aksilinqilobchi deb ayblanib, 1938-yil 5-oktabrda otishga hukm qilingan.

Uni mashhur qilgan holatlar: Cho'lpon jadidchilik g'oyalariining faol targ'ibotchisi va ma'rifatparvar inson sifatida taniladi. «Uyg'onish» to'plami tezda xalqqa manzur bo'ladi.

Asarlari: «Buloqlar», «Tong sirlari», «So'z» to'plamlari hamda «Go'zal yozg'ichlar», «Adabiy parchalar» asarlari, «Yorqinoy» dramasi va «Kecha va kunduz» romani.

Uning tarjimalari mahsuli: Gorkiyning «Ona», «Yegor Bulichev», Pushkinning «Boris Godunov», «Dubrovskiy», Yejen Potyening «Baynalmilal», Robindranat Tagorning «Hoy yo'lovchi qiz», Leonid Andreyevning «Yetti osilgan» qissasi, Shekspirning «Hamlet» asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Cho'lpon asarlaridagi ma'rifatparvarlik va insonparvarlik g'oyalari:

1. Cho'lpon o'zining ma'rifiy qarashlarida millatni har bir ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealar mohiyatini aniq anglab olishga da'vat etadi, shunday qilgandagina chinakam ozodlik uchun kurashishda xatolik bo'lmasligini aytadi.

2. U ozodlik kurashi davom etishiga, xalqning erk uchun kurashib, mustamlakachilarning yo'qotilishiga ishonadi. Uning fikricha, zulmkor kuchayib, insonlarga ega bo'lishi mumkin, ammo vijdoniga ega bo'la olmaydi.

3. Cho'lponning ta'kidlashicha, ko'ngil erkinligini ta'minlashning o'zigina tugal maqsad bo'la olmaydi. Ko'ngil tashqi olam bilan bog'liq. Ko'ngilning yashnashi uchun yonib yashash, tashqi olamdan andoza olgan holda, ko'ngilni o'zgartirishga intilish kerak.

4. U zamondoshlariga xitob qilib deydi:

*Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan.
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ilg'onsan.*

5. Cho'lpon xalqni dengiz, to'lqin, kuch deb his etadi. Xalq qo'zg'alsa, uni to'xtatuvchi kuch yo'qligiga ishonadi. Uning uqtirishicha, xalqning istagi o'z o'lkasining ozod bo'lishidir, xalq yurtni har bir narsa bilan to'ldirishga, o'zini to'q etishga qodir deb biladi va shunga chorlaydi.



FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. —T.: «Ma'naviyat», 2008.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. —T.: «O'zbekiston», 1992.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. —T.: «Sharq», 1998.
4. Abdurasulov M. O'zbek ma'rifatparvar shoirlari ilm-ma'rifat haqida. —T.: «O'qituvchi», 1972.
5. Abdurauf Fitrat. Chin sevgi. —T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
6. Abu Ali ibn Sino. Hikmatlar. —T.: «O'zbekiston», 1980.
7. Axloq-odobga oid hadis namunalari. —T.: «Fan», 1990.
8. Abdurashidxonov M. Badiiy asarlar to'plami. —T.: 1908.
9. Ahmedov A. Ulug'bek. —T.: «Fan», 1991.
10. Aliqulov X., Omonova G'. Jomiy va Davoniy ta'lim-tarbiya haqida. —T.: «O'qituvchi», 1981.
11. Adabiyoti tojik (R. Xodizoda, T. Ne'matzoda, T. Mirov). (Baroyi sinfi X). Dushanbe: «Ma'orif», 1990.
12. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. —T.: «O'qituvchi», 1972.
13. Ayniy S. Asarlar. Sakkiz tomlik. 1-tom. —T.: 1963.
14. Al-Buxoriy. Al-Adab al-Mufrad. —T.: «O'zbekiston», 1990.
15. Abu Iso Muhammad at-Termiziy. Sunani Termiziy. 1-jild. —T.: «Adolat», 1999.
16. Alisher Navoiy. Xamsa. —T.: 1960.
17. Amir Temur. Temur Tuzuklari. —T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
18. Ahmad Donish. Navodur ul-vaqos. —T.: 1984.
19. Baratov M. Abu Ali ibn Sino — buyuk mutafakkir. —T.: «Fan», 1980.
20. Behbudiy M. Bayoni soniy. —T.: 1907.
21. Baratov M., Aliqulov H. O'rta Osiyo mutafakkirlari axloq haqida. —T.: «O'zbekiston», 1974.
22. Donishmandlar tarbiya xususida. —T.: «O'qituvchi», 1982.
23. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. —T.: «Aloqachi», 2006.
24. Zunnunov A., To'xliyev B., Ma'sudov X. Pedagogika tarixi. —T.: «Sharq», 2002.
25. Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi. —T.: «Fan», 1990.
26. Qur'onov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. —T.: «O'qituvchi», 1997.

27. Mallayev N.M. Navoiy ijodiyotining xalqchil negizi. —T.: «O'qituvchi», 1973.
28. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi. —T.: 1974.
29. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. —T.: «Fan», 1993.
30. Ma'naviyat yulduzlari (nashrga tayyorlovchi O'zFA akademigi M.M. Xayrullayev). —T.: «Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti», 2001.
31. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk (3 jildli). —T.: «Fan», 1990.
32. Obidov A. Abu Rayhon Beruniy va yangi nazariya. —T.: «Fan», 1991.
33. Umar Xayyom. Navro'znoma. —T.: «Mehnat», 1990.
34. O'rta Osiyo pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. —T.: «Fan», 1991.
35. O'zbek pedagogikasi tarixi. —T.: «O'qituvchi», 1997.
36. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir // Sharq yulduzi. 3, 4, 5, 6, 7, 8-sonlar, 1995.
37. Sa'diy. Bo'ston. —T.: 1960.
38. Sultanov I. Bahouddin Naqshband abadiyati. —T.: «Fan», 1994.
39. To'xliyev B. Qutadg'u bilig. —T.: «O'zbekiston», 1991.
40. Forobiy. Risolalar. —T.: «Fan», 1995.
41. Xayrullayev M. O'rta Osiyo ilk uyg'onish davri madaniyati. —T.: «Fan», 1994.
42. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. —T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.
43. Shomuhamedov Sh. Sa'diy Sheroziy. —T.: «Fan», 1964.
44. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova I., Hasanov R. Pedagogika tarixi. —T.: «O'qituvchi», 1996.

M U N D A R I J A

Allomalar — tariximiz, ma'naviy merosimiz	3
Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy	8
Ahmad al-Farg'oniy	10
Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy	12
Muhammad ibn Iso at-Termiziy	14
Abu Nasr Forobiy	16
Abu Rayhon Beruniy	18
Abu Ali ibn Sino	20
Nosir Xisrav	22
Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy	24
Umar Xayyom	26
Ahmad Yassaviy	28
Mahmud Koshg'ariy	30
Yusuf Xos Hojib	32
Burhoniddin al-Marg'inoniy	34
Shayx Najmiddin Kubro	36
Muslihiddin Sa'diy	38
Jaloliddin Rumi	40
Bahouddin Naqshband	42
Sohibqiron Amir Temur	44
Mirzo Ulug'bek	46
Abdurahmon Jomiy	48
Alisher Navoiy	50
Zahiriddin Muhammad Bobur	52
Boborahim Mashrab	54
Zebunniso	56
Jahon otin Uvaysiy	58
Nodira	60
Komil Xorazmiy	62
Ahmad Donish	64
Is'hoqxon Ibrat	66
Mahmudxo'ja Behbudiy	68
Abduqodir Shakuriy	70
Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li	72
Abdulla Avloniy	74
Sadriddin Ayniy	76
Abdurauf Fitrat	78
Hamza Hakimzoda Niyoziy	80
Abdulhamid Cho'lpon	82
Foydanilgan adabiyotlar	84

**Niyozov Gulmurod Boymurodovich,
Ahmedov Qo'ldosh Mutalevich,
Tojiboyev Qurbon Tutqichboyevich**

**SHARQ ALLOMALARI VA MA'RIFATPARVAR
ADIBLARINING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIGA OID
MA'NAViy-AXLOQiy QARASHLARI**

Muharrir *A. Ziyadov*
Badiiy muharrir *R. Zufarov*
Texnik muharrir *U. Kim*
Musahhih *S. Solohiddinova*
Kompyuterda sahifalovchi *B. Dushanova*

Nashriyot litsenziyasi AI 158, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 12.10.2010.
Qog'oz bichimi 60×90 $\frac{1}{16}$ Tayms garniturada ofset usulida bosildi. Shartli b.t. 5,5.
Nashr t. 6,29. 2000 nusxada chop etildi. Bahosi shartnoma asosida.
Buyurtma № 10-331.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Niyozov, Gulmurod Boymurodovich.

N-55 Sarq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari [Text] / G.B. Niyozov, Q. Ahmedov, Q. Tojiboyev. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2010. –88 b.

I. Ahmedov, Qo'ldosh Mutalevich

II. Tojiboyev, Qurbon Tutqichboyevich

ISBN 978-9943-01-614-9

ББК87.77